

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI



Al-Xorazmiy nomli Urganch davlat universiteti

Filologiya va san‘at fakulteti

401- o‘zbek guruhi talabasi Xo‘janiazova Dinoraning  
bakalavr akademik ilmiy darajasini olish uchun yozgan  
“Xorazm dostonlarida poetik simvollar” mavzusidagi

# Bitiruv malakaviy ISHI

Bajardi:  
Ilmiy rahbar:

Xo‘janazarova Dinora  
prof. S.R.Ro‘zimboyev

URGANCH-2012.

## **REJA**

### **Kirish**

I BOB Ramzlarning kelib chiqishi va evolutsiyasi.

1.1 Narsa – predmetlar va turli tasavvurlarga oid poetik ramzlar.

1.2 Dostonlarda raqamlar simbolikasi.

II BOB Tabiat va o‘simliklarga aloqador ramzlar.

2.1 Dostonlarda qushlar olami bilan bog‘liq ramzlar.

2.2 Dostonlarda hayvonot olamiga aloqador ramzlar.

### **Xulosa.**

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Xalq dostonlari badiiy tafakkurning noyob durdonalaridir. Ularda xalqning aql-farosati, ruhiyati, dunyoqarashi, hayot falsafasi o‘z ifodasini topadi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A Karimov “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag‘ishlangan tantanada ushbu doston haqida gapirib shunday degan edi: ““Alpomish”- o‘zbekning o‘zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan-avlodlarga o‘tkazib kelayotgan qahramonlik qo‘shig‘idir”<sup>1</sup>.

““Alpomish” dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘st – u yorimizni, or – nomusimizni, ota – bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o‘rgatadi”<sup>1</sup>.

Ushbu fikr barcha o‘zbek dostonlariga berilgan xolis bahodir. Darhaqiqat, baxshilarning uzoq asrlar davomida ustozlik-shogirdlik an‘anasi bo‘yicha og‘izdan og‘izga o‘tib, sayqal topib kelayotgan dostonlar badiiy nutqning eng mukammal-etuk ko‘rinishidir. Ularning tarkibida ko‘plab badiiy tasvir vositalari ishlatilgan bo‘lib, shulardan biri poetik ramzlardir.

Xalq dostonlari badiiyatini, xususan, poetik ramzlarni Xorazm dostonlari asosida o‘rganish folklorshunoslik ilmiga muayyan yangiliklar bera oladi. Negaki, Xorazm dostonlari ko‘proq qo‘lyozma nusxalarda tarqalganligi sababli poetik ramzlarni ishlatishda o‘ziga xoslik alohida ko‘zga tashlanadi. Dostonlardagi bu xususiyatni o‘rganib chiqish, poetik ramzlarning matndagi vazifasini aniqlash muhim ilmiy nazariy ahamiyatga ega. Xorazm dostonlarida poetik ramzlarning ko‘plab turlari uchraydi. Ularni tahlil qilish, badiiy-estetik funksiyasini xolis baholash, ramzlarning mantiqiy, lokal xususiyatlarini yoritib berish ishimizning **dolzarbligini** belgilaydi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-provard maqsadimiz.-T.: “O‘zbekiston”, 2000. B. 78.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** O'zbek adabiyotshunosligida poetik ramzlar, xususan, ularning dostonlar badiiyatida tutgan o'rni haqida ko'pgina tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Xalq qo'shiqlaridagi poetik ramzlar haqida dastlab M.Alaviya ayrim fikrlar bilan chiqdi<sup>2</sup>. U o'z tadqiqotlarida bu badiiy vositani “ramz”, “parallelizm”, “allegoriya”, “psixologik motivirovka” kabi nomlar bilan yuritadi. Poetik ramzlarga oid ayrim qaydlar O. Sobirovning ishlarida ham mavjud<sup>3</sup>. Olim ramzlarni timsoliy tasvirlar, ramziy obrazlar tarzida nomlaydi. O'tgan asrning 80-yillarida poetik simvol haqida yaratilgan tadqiqot A.Sharopovning “Olamlar ichra olamlar” kitobidir. Uning ta'kidlashicha, “poetik simvol badiiy vosita-voqelikni aks ettirish usuli sifatida qadimdan istifoda qilinadi. Uning eng dastlabki namunalari xalq og'zaki ijodida ko'rinadi”<sup>4</sup>.

A.Sharopov o'z tadqiqotiga zamonaviy lirikani asos qilgan holda muhim fikrlarni ilgari surgan.

Xalq qo'shiqlari bo'yicha poetik ramzlarni mahsus tadqiqot ob'ekti sifatida tahlil qilgan yana bir folklorshunos Sh.Turdimovdir. U qator maqolalarida poetik ramzlarning asosiy belgilarini yoritib beradi<sup>5</sup>.

Shuningdek, A.Musaqulov, N.Jumatova, M.Yoqubbekovalarning tadqiqotlarida ham poetik ramzlar xususida muayyan fikrlar bayon qilingan<sup>6</sup>.

Shuni ta'qidlash kerakki, bu ishlarning barchasi xalq qo'shiqlari va zamonaviy lirika asosida amalga oshirilgan.

Bizning tadqiqotimizga bevosita aloqador tadqiqot folklorshunos S.Ro'zimboevning ayrim ishlarida uchraydi<sup>7</sup>. Biroq bu tadqiqotda chuqur nazariy fikrlar, umumlashtiruvchi xulosalar berilgan bo'lsa-da, dostonlardagi poetik ramzlarning ayrim qirralarigina yoritilib, yangi tadqiqotlarga yo'l ochilgan.

<sup>2</sup> Alaviya M. O'zbek halq qo'shiqlari. -T.: Fan, 1959, 6-101-betlar.

<sup>3</sup> Sobirov O. Qo'shiqlar haqida. // Kelinoy qo'shiqlari. -T.: “Adabiyot va san'at”, 1981. 5-10-betlar.

<sup>4</sup> Sharopov A. Olamlar ichra olamlar. -T.: “Adabiyot va san'at”, 1978. B.10.

<sup>5</sup> Qarang: Turdimov Sh. Poeticheskie simvolы v uzbekskih narodnyh pesnyah, AKD. -T.: 1987. S.20; Lirik qo'shiqlarda ramz. // O'zbek tili va adabiyoti, 1982, №3, 16-19-betlar; O'zbek halq qo'shiqlarida “Tom” ramzi. // Adabiy meros, 1987. №2, 69-73-betlar; Tom ustiga tom soldim. // Yoshlik, 1988, №7, 75-76-betlar.

<sup>6</sup> Qarang: Musaqulov A. O'zbek halq qo'shiqlarining tarixiy asoslari: Buhoro, 1994; Jumatova N. Hozirgi o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy obrazlar. N.D.A.-T.: 2000. Yoqubbekova M. Halq lirikasida gul ekspressemasining lingvopoetik talqini. -T.: 2004.

<sup>7</sup> Ro'zimboev S. Horazm dostonlaridagi ramzlar. // O'zbek tili va adabiyoti, 1990, №2. 39-43-betlar.

**Tadqiqotning maqsadi.** Hozirda Xorazm dostonlarining besh kitobdan iborat matni e'lon qilindi. Ushbu boy va rang-barang materiallar asosida dostonlar tarkibidagi ramzlarning mintaqaviy o'ziga xosligini yoritib berish ishimizning asosiy maqsadini tashkil etadi.

**Tadqiqotning vazifasi.** Xorazm dostonlaridagi ramzlarning badiiy-estetik funksiyasini tadqiq etish jarayonida quyidagi vazifalarga asosiy e'tibor qaratiladi:

-Ramzlarning tarixiy ildizlari va evolutsiyasini tadqiq qilish;

-Xorazm dostonlarida ishlatilgan ramzlarning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;

-Ramzlarning mavzu doirasini aniqlash va tasnif qilish;

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.**

Ramzlar o'z mohiyatiga ko'ra oddiy tasvir vositasi emas, balki uning yaratuvchisi bo'lgan xalqning aqliy-ruhiy o'ziga xosligini, falsafiy-mushohadasini aks ettiradi.

Ushbu poetik ko'chimning tadqiq etilishi dostonlarda ularning tutgan o'rni, badiiy –estetik funksiyasini aniqlash imkonini yaratadi.

Xorazm vohasi o'ziga xos etnofolkloriy mintaqa bo'lib, uning eposida etnosga aloqador qator ritual xususiyatlar, magik e'tiqodlar saqlanib qolgan. Mazkur masalalarni ilk bora batafsil yoritib berish ishimizning ilmiy **yangiligini** belgilaydi.

## I BOB POETIK RAMZLARNING TARIXIY ILDIZLARI VA EVOLUTSIYASI

Simvol-ramznig paydo bo'lishi insoniyat tarixi qadar qadimiydir. Uning nomi yunon tilidan Symbolon so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "tamg'a", "belgi", "nishon", "alomat", "signal", "parol" kabi bir-biriga yaqin ko'plab ma'nolarni o'zida jamlaydi<sup>1</sup>.

Insoniyat ramziy ifodalardan ibtidoiy hayot davridan beri foydalanib keladi. Ularning paydo bo'lishi hayot taqozosi natijasi bo'lib teran mushohadalar asosida shakllana boshlagan.

Ovchilik, chorvachilik bilan hayot kechirgan ibtidoiy inson har qadamda belgi, signal va parollarga muhtoj bo'lgan.

Aytaylik inson biror joyda baliqlar g'uj-g'uj bo'lgan tabiiy hovuzlarga duch kelib, u erdan katta o'lja bilan qaytayotib, ertaga yana sheriklari bilan kelishni ko'ngliga tugar ekan, adashmaslik uchun yo'llar yoqasidagi tosh yoki daraxtga belgilar o'yib ketishga qaror qilgan. O'sha belgilar ovning turiga qarab turlicha tasvirni ifoda etgan. Masalan, baliq bo'lsa baliqni, qush bo'lsa qushni eslatuvchi belgilar qo'yilgan. Shu tariqa ramzlarning ibtidoiy shakllari insoniyat talablariga xizmat qila boshlagan. Ularning ov qilishiga, o'z molini o'zga mollardan farq qilishda yordamlashgan.

Jamiyatning rivojlanib borishi, inson tafakkurining kamol topishi natijasida ramziylik ham taraqqiy qilib, ularning ma'no doirasi kengayib, takomillashib borgan.

Dinning paydo bo'lishi, e'tiqod va inonchlarning shakllanishiga yo'l ochdi, qo'shiq kuylash, raqs tushish san'atining ibtidoiy ko'rinishlari ro'yobga chiqdi.

Raqslarda ov jarayoni, urushlar, hayvonlarga xos harakatlarni ramziy ifodalash asosiy tamoyilga aylandi. Keyinchalik totemizm elementlari tug'ilib, har bir urug' o'sha totem-hayvonning boshi va terisiga yopinib, qaysi totemga aloqador ekanligini ramziy ifodalashga harakat qiladi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Losev A.F. Проблемы символа и реалистическое искусство. -М.: "Искусство", 1976. С.18.

<sup>2</sup> Koler I., Ranke I., Rattsel F. Istoriya chelovechestva (doistoricheskiy period), SPb.: Poligon, 2003.S.78-79.

Asta-sekin san'at taraqqiy qilib, turli shakllarni ifodalovchi sfinikslar, skulptura va devorlarga o'yilgan shakllar yuzaga kela boshladiki, bularning barchasi o'ziga xos ramziy ifodalardir<sup>3</sup>. Butga sig'inish ham o'z mohiyat e'tibori bilan ramziylikka borib taqaladi.

Chunki, unga sig'inuvchi shaxs o'sha butni o'zi e'tiqod qiluvchi xaloskor ramzida tasavvur qiladi. Bu inonchning negizida ham eng qadimgi rituallar yotadi. Ibtidoiy hayot davrida eri o'lgan ayol eri qiyofasidagi haykalcha-qo'g'irchoqni uning obrazi ramzi sifatida ko'kragiga osib yurgan<sup>4</sup>. Davr o'tishi bilan ramzga bo'lgan munosabat ham o'zgara bordi, ular ijtimoiy mazmun kasb etib, jamiyatdagi biror masalani hal qiluvchi vositaga aylandi. Turli belgi, tamg'alar yuzaga kela boshladi.

M.Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" da ma'lumot berishicha, turkiy qabila va urug'larning har birida o'zaro farq qiluvchi, ma'lum bir urug'ni anglatuvchi ko'plab tamg'alar bo'lgan<sup>5</sup>. Bu tamg'alarning eng so'nggi ko'rinishi davlatlarni ifodalovchi gerblardir.

Insoniyat ijtimoiy hayotda ramziylikdan turli hodisa-voqea va kayfiyatlarni anglatishda foydalanib kelganlar. Masalan, urush davrida oq bayroq ko'tarish yarashish, sulh tuzish ramzini bildirgan.

Qora kiyinish azadorlikning belgisi bo'lgan. Xorazmda oq kiyinish hozirda ham motam ramzi sifatida qabul qilinadi.

Xalq eposida ramziylikning turli ko'rinishi turlicha tarzda namoyon bo'ladi. O'g'uzlarning qadimiy eposi "Kitobi dadam Qo'rqut" da shunday bir lavha mavjud.

Eposda xonlar xoni deb atalgan Bayondurxon har yilda bir marta to'y berib, o'g'uz beklarini chaqirar ekan. U "... bir joyga oq o'tov, bir joyga qizil o'tov, bir joyga qora o'tov tiktirmish. O'g'li borni oq o'tovga, qizi borni qizil o'tovga. O'g'li-qizi bo'lmaganni qora o'tovga qo'ndiring, qora kigiz to'shab, qora qo'y yaxnasidan oldiga qo'yingizu esa esin, emasa ketsin, kimning o'g'li-qizi

---

<sup>3</sup> Guliyga A.V. Printsipy estetiki.-M.: IPL.1987. S. 260.

<sup>4</sup> O'sha manba, 77-bet.

<sup>5</sup> Koshg'ariy M.Devonu lug'atit turk. -T.: "Fan", 1960. B.441.

bo‘lmasa, egam uni qarg‘agandir, biz ham qarg‘armiz, demish”<sup>6</sup>.

Ushbu lavhadagi oq, qizil, qora ranglar muayyan ramzni anglatib, qora rang ular orasida salbiy ramz sifatida tilga olinadi. Bunday ramziy ifodalar Xorazm dostonlarida ham ko‘plab uchraydi. “Xiromon pari” dostonida e‘tiborni tortuvchi bitta lavha uchraydi. Ikki shahzoda-Munavvarsulton va Zevarsultonlar shikorga chiqishadi. Shunda Munavvarsultonning ko‘ziga nogahonda bir oq narsa ko‘rinadi. Borib nazar solsa bir sohibjamol qiz ekan. Shahzoda uni ko‘rib, behush bo‘lib yiqiladi. Qiz ancha kutadi, lekin yigit hushiga kelmaydi. Qiz biroz o‘ylab turadi va nihoyat boshidagi ro‘molini olib, unga yettita ko‘mir va soqol taroqni solib, yigitning boshiga bog‘lab, ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Shahzodaning izidan kelib, bu ahvolda yotganidan xabardor bo‘lgan sheriklari uni otasining huzuriga olib kelishadi. Podsho qur‘andozlarni taklif qilib, bu ahvolning ma‘nosini so‘raydi. Shunda bir momo podsho huzuriga kelib aytadiki:

“- Ey podshohim, bu ro‘ymol bir ishorat turur. Qandim ko‘mir zargarga darkor bo‘lur, qizning otasi zargar erkan. Bu saqol taroqi Shamshod yog‘ochidin bo‘lur, yurti Shamshod erkan”<sup>7</sup>.

Dostonda kampirning “Ishorat” degan so‘zi ramzni bildiradi. Binobarin qiz ro‘mol qoldirish orqali o‘z muhabbatini, ko‘mir orqali otasining kasb-korini, taroq vositasida o‘z elining nomini anglatishni maqsad qilib qo‘ygan. Ushbu uchta narsaning barchasida ramziylik xususiyati mavjud. Bunday ramziy ishoralar ertaklar tarkibida ham ko‘plab uchraydi.

Biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan poetik ramzlar hozirgi ma‘no va mazmunga ega bo‘lguncha jiddiy takomil yo‘lini boshdan kechirgan. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda ramzlarga nisbatan turli qarashlar ilgari surilgan. “Uzoq yillar mobaynida simvol-ramz ma‘nosini tadqiqotchilar turlicha idrok qilib kelishdi. Uni goh “allegoriya”, gohida “belgi”, ba’zida “badiiy obraz”, ba’zida “jonlantirish”, ayrim hollarda “tamg‘a” “ibora” tarzida atab kelishdi”<sup>8</sup>.

---

<sup>6</sup> “Yoshlik” jurnali. 1988, №5, 40-bet.

<sup>7</sup> Oshiqnoma, II kitob, Urganch, 2006. B.301.

<sup>8</sup> Losev A.F. Ko‘rsatilgan manba, 18-bet.

Rus folklorshunosligida poetik ramz masalasi tarixi XVIII asrning oxirlaridan boshlanadi. O`sha davrgacha ramzlar oddiy emblema yoki emblemaning aforistik ifodasi sifatida baholanib kelgan<sup>9</sup>.

Rus adabiyotshunosi K.M. Butirlinning ta`kidlashicha, rus folklorshunosligida ilk bora A.A. Potebnya ramzni allegoriyadan farqlab, uni alohida ravishda baholab poetik ramz sifatida tan oladi. Rus olimlarining tadqiqotlarida simvol-ramz masalasida turlicha qarashlarning mavjudligi ushbu poetik ko`chimning an`anaviy semantikasi bilan badiiy asardagi o`rnini aniq belgilamaslikdandir. Shunday qilib, bir vaqtlari belgi, tamg`a shaklida yuzaga kelib, ramziy ifodalardan o`sib, takomillashgan poetik ramzlar oddiy o`xshatish yoki metafora emas, balki ichki o`xshashlikka asoslangan falsafiy tushunchadir. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda ramz uchun tanlab olingan ob`ekt (predmet) ma`no jihatidan ko`p qirralidir. Uning bir uchigina umumiy o`xshashlikka kelib birikadi. Masalan, badiiy tafakkurning eng qadimgi mahsullaridan bo`lgan ayrim maqollar tarkibidagi ramzlarga nazar solaylik:

Er-xotin qo`sh ho`kiz.

O`g`ling yoqqan chiroqni,

Qizing ham yoqadi.

Birinchi maqol ma`nosini sharhlaydigan bo`lsak, ikki tushunchani faqat juftlik-qo`sh ho`kiz o`zaro bog`laydi. Chunki er-xotin ham, qo`sh ho`kiz ham juftlikdan iborat. Qo`sh ho`kiz omochni birgalikda tortishadi. Oilani ham er-xotin hamkorlikda yuritishadi. Bunday olib qaraganda qo`sh ho`kizning oilaga predmetlik belgisi jihatidan olib qaraganda hech qanday aloqasi yo`q.

Ikkinchi maqolda ham o`sha hodisani kuzatish mumkin. Chiroq-oila ramzi. Maqolda ta`kidlangan chiroq yoqish tushunchasining predmet sifatida masalaga hech qanday aloqasi yo`q. Chunki asosiy fikr chiroq yondirish haqida emas, balki oilaning keyingi taqdirini belgilash, shajarani davom ettirish haqida

---

<sup>9</sup> Вуты́лин К.М. Проблема поэтического символа в русском литературоведении (XIX-XXvv) // Исследования по поэтике и стилистике. -Л.: Наука, 1972. С. 249.

ketayotir. “Go‘ro‘g‘li” eposida ramz bilan bog‘liq xarakterli epizod bor.

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida tasvirlanishicha, Go‘ro‘g‘li go‘rda tug‘ilib mozor atrofida o‘ynab yuradi, uni podadagi yilqilardan bittasining emizishi ma‘lum bo‘lib qoladi va go‘dakning o‘g‘il yo qiz ekanligini aniqlash lozim bo‘ladi. O‘sha paytda go‘rning oldiga bitta oshiq va bitta qo‘g‘irchoq qo‘yishadi. Bola qo‘g‘irchoqqa ahamiyat bermasdan oshiqni olib o‘ynay boshlaydi. Uning bu qilg‘idan o‘g‘il bola ekanligini bilib olishadi.

Ushbu epizodda oshiq o‘g‘il bolaning ramzi sifatida beriladi. Agarda predmet sifatida olganda oshiq bilan o‘g‘il bola o‘rtasida aloqadorlik yo‘q. Ularni ichki, yashirin bog‘laydigan xalqa o‘g‘il bolalarning oshiq o‘ynashidir. Agarda u qo‘g‘irchoq o‘ynasa qiz jinsiga mansub deb qaralar edi.

Folklor va mumtoz adabiyotda shunday obrazlar borki, ular muayyan bir tushunchaning mohiyatini o‘zida ifodalaydigan ramziy ma‘noga aylanib ketishgan. “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonidagi ushbu misralar bunga misol bo‘la oladi:

To‘lib-toshib, Jayhun bo‘lib,  
Qizil kiyib, gulgun bo‘lib,  
Bu kun oshiq Majnun bo‘lib,  
Layli deb kof, loma yuzlan<sup>10</sup>.

Dostondagi bosh qahramon G‘arib ishq masalasida o‘zini Majnun, Shohsanamni Layli o‘rnida qo‘yadi. Binobarin, Majnun va Layli obrazlari ishq-muhabbat, vafodorlik masalasida ramzay dominant darajasiga ko‘tarilgan.

Poetik ramziylik oddiy o‘xshatish emas. Uning mohiyatida an‘anaviy tasavvurlar, urf-odatlar, ijtimoiy tafakkur, xalqning magik-mifologik qarashlari o‘z ifodasini topadi.

Ramziy ifodalar insoniyat ibtidosidayoq yuzaga kelib, o‘z yaratuvchilari idroki asosida katta tadrijiy taraqqiyotni o‘z boshidan kechirdi. Oddiy belgi, tamg‘a tarzida tug‘ilib poetik tafakkurni ifodalovchi

---

<sup>10</sup> Oshiqnoma, II kitob, 97-bet.

badiiy vosita sifatida shakllandi. Uning ma'no doirasi nihoyatda keng va rang barangdir. Ramziy ifoda obrazlilikdan kelib chiquvchi izchil mantiqiy semantikani o'z ichiga qamrab oladi. Shu sababli badiiy obraz ramziylikdan tashqarida tura olmaydi. "Ramziylikni badiiy obrazdan ajratish, uni obraz sifatida gavdalanadigan predmetdan mahrum qilish demakdir. Ta'bir joiz bo'lsa, ramz har qanday badiiy obrazlilikning ashyoviy predmeti va uni ro'yobga chiqaruvchi andozasidir".

Albatta, ramzlar ham badiiy ko'chimlarning bittasidir. Biroq ramzlar o'z tabiatiga ko'ra o'xshatish, sifatlash, metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi badiiy vositalarga ancha monand keladi. Shu bilan birga ulardan farq ham qiladi.

Ushbu tilga olingan ko'chimlarning barchasi asosan predmetlararo tashqi o'xshashlikka asoslansa, ramzlar muqoyasasi ichki, botiniy o'xshashlikka asoslanadi.

## 1.1 NARSA-PREDMETLAR VA TURLI TASAVVURLARGA OID POETIK RAMZLAR

Poetik ramzlar eng qadimgi tasavvurlarga borib bogʻlanishi bilan butun insoniyat tushunchasida umumiylik kasb etadi. Shu bilan birga u mintaqaviylikdan ham xoli emas. Oʻz navbatida “ ... u yoki bu xalqning folkloridan, urf-odatlaridan yozma adabiyotidan shu xalq yashayotgan, joylashgan geografik muhit, uni oʻrab olgan tabiatning xususiyatlari va belgilari, badiiy mavjudlikning namunasi sifatida oʻrin oladi»<sup>1</sup>.

Bu hodisa poetik ramzlarga ham aloqadordir. Xorazm dostonlari tarkibidagi poetik ramzlar tahlili bu fikrimizga dalil boʻla oladi.

Dostonlarni majoziy tasvir va ramzlarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Simvolik yoki ramziy obraz oʻz xarakteriga koʻra majozning bir turidir. Lekin bu har qanday majoziy-koʻchma maʼnodagi soʻz yoki soʻz birikmasi simvol, degan gap emas. Poetik simvol oʻziga xos xususiyatlariga koʻra majoz va boshqa tasvir vositalaridan ajralib turadi. Baʼzan oddiy metaforani-koʻchimni uning bajarayotgan vazifasiga, ifoda etayotgan maʼnosiga eʼtibor bermagan holda simvol deb sharhlash hollari ham uchrab turadi. Lekin bu katta xatodir. Poetik ramzlar metaforaga nisbatan murakkab tuzilishga ega. Agar oddiy metafora, joʻn qilib aytganda, qisqartirilgan oʻxshatish boʻlsa, poetik ramzda murakkabroq zohiriy kompozitsiya mavjud. Poetik ramzlarda aks etuvchi va aks ettiruvchi xususiyatlarning solishtirilishi yashirin tus oladi. Unda aks etuvchi aks ettiruvchida toʻliq holga kiradi.

Metaforada esa aks etuvchi va aks ettiruvchi parallel holda qoʻyilib solishtiriladi: Masalan:

**Bir pariga koʻngil berdim,**

Aysh ila ishratin koʻrdim. (“Oshiqnoma”, I kitob, 74-bet.)

Bu erda pari soʻzi metafora boʻlib, aynan oshiq yorini pariga oʻxshatgan. Bu misrada aks etuvchi ham bor, aks ettiruvchi ham bor shuning uchun ham u metafora. Bu erda goʻzallikka asoslangan tashqi ochiq oʻxshashlik mavjud.

---

<sup>1</sup> Sharipov A. Olamlar ichra olamlar, 103-bet.

Badiiy adabiyot tarixida juda ko‘p va xilma-xil obrazlar yaratilganki, ular o‘zida u yoki bu aniq xususiyatlarni tashish bilan bir qatorda, muayyan bir tushunchaning mohiyatini o‘zida ifodalay oluvchi predmet-obrazga ham aylanib ketgan.

Simvol mavjud predmet haqida bevosita tasavvur bera oladi: u konkret, bizning ongimizga bog‘liq bo‘lmagan, undan tashqaridagi narsadir, voqealidir.

Simvoldagi predmet bilan ma’no munosabatini aniqlashda qo‘llanilgan ko‘chimlar asosiy, belgilovchi ahamiyatga ega. Simvolik obrazda ishlatilgan ko‘chimlar oddiy ko‘chimlardan farq qiladi. Simvolda ular ma’no anglatish va ma’noni belgilash, ta’kidlash xususiyatiga qodir. Bunday ko‘chim birdaniga ikki vazifani bajaradi: ham tushuntiradi, ham ko‘rsatadi. Undagi tushuntirish ma’no anglatish bilan bog‘liq bo‘lsa, ko‘rsatish ma’noga ishora qiladi. Masalan:

O‘zim o‘tgan kunim **chirog‘im** o‘char,

Mango bir **chirog`chi** ber deb yig‘larman.

(“Oshiqnoma”, I kitob, 104-bet.)

Bu erda **chirog‘im** va **chirog‘chi** so‘zlari poetik simvol bo‘lib, bu misralarda tushuntirish va ko‘rsatish ustunlik qilayapti. Misralardagi **chirog‘im o‘char** birikmasi **o‘lim** ma’nosida kelgan bo‘lsa, **chirog`chi** so‘zi **farzand** ma’nosida kelgan. Chunki chiroqning o‘chishi **qorong‘ulik, zulmatni** bildirsa, chiroq yonishi **yorug‘lik, baxt** ma’nolarida keladi. Farzand doimo uyning chirog‘ini yoquvchisi, avlodning davomchisi hisoblangani uchun uni **chirog‘chi** deb bemalol aytsa bo‘ladi. Xullas, simvol sifatida tanlangan predmet o‘zi ko‘p predmetlilik xususiyatiga ega bo‘lgani uchun undan turli-tuman ijtimoiy mazmuni ifoda etish vositasi sifatida foydalanish mumkin.

Dostonlarda ramz ishlatishning ko‘lami xiyla kengdir. Jumladan, yil mavsumlari, hayvonot olami, tabiat hodisalari (qor, yomg‘ir, bulut) bilan bog‘liq ko‘plab ramzlar dostonlar tarkibidan joy olgan. Xorazm dostonlarida ishlatiladigan ramzlar, asosan, o‘g‘uz guruhiga mansub xalqlar dostonlaridagi poetik simvollar bilan mushtarak bo‘lsa-da, Xorazmdan boshqa joylarda yashovchi o‘zbeklar orasida tarqalgan dostonlardagi ramzlardan ham keskin farq qilmaydi. Chunki

ramzlar ibtidoiy davrda yashagan odamlarning mifologik tasavvurlari bilan aloqador bo‘lib, faqat yaqin hududdagi qardosh xalqlar ijodidagina emas, balki jahondagi ko‘pchilik xalqlar ijodida umumiylik xususiyatiga ega.

Xorazm dostonlarida poetik simvollarning ko‘plab turlari mavjud. “Oshiq” turkumiga kiruvchi dostonlardagi narsa-predmetlarga oid ramzlar nihoyatda rang barangdir:

Fikr aylab, yorim ketdi gumona,

Yor **xanjari** bugun etishdi jona. (“Oshiqnoma”, I kitob, 30-bet)

Bu erda **xanjar** so‘zi poetik simvol o‘rnida ishlatilgan. Xanjar juda o‘tkir tig‘li asbob bo‘lib, jonga ozor berganidek, yor ishq ham huddi xanjar kabi oshiqning joniga ozor beradi.

Hamro deyar, yor hamisha xandondir,

Yurtimizda qolg‘on ul Salbijondir,

**La’lidur, gavhardir, duri-marjondir,**

Murassa’ qubbasi bordir kaklikning (“Oshiqnoma”, I kitob, 45-bet)

Bu erdagi **la’li, gavhar, dur, marjon** qimmatbaho va chiroyli toshlar hisoblanadi. Shuning uchun ham Hamro o‘z yori Salbijonni shu toshlarga qiyoslab, uning ramziy qiyofasini ta’kidlayotir.

Bo‘ying sarvi desam, qomating tubi,

Oq yuzingda xollar **hindidur-hindi**. (“Oshiqnoma”, I kitob, 57-bet)

Yuqoridagi misradagi **hindi** so‘zi poetik simvoldir. Bunda hind xalqi azaldan qora tanli xalq ekanligi, yor yuzidagi hollar hindlar qiyofasiga ramzlantirilgan.

Yotar erdik, barzangilar to‘kildi,

Yig‘la, yorim, oxir zamon bo‘lgandir.

Bizni ko‘rib, **oylar, kunlar** tutildi,

Yig‘la, Sayod, oxir zamon bo‘lgandir. (“Oshiqnoma”, I kitob, 70-bet)

Bu misrada **oylar, kunlar tutilishi** yomonlik alomati hisoblangani sababli, Hamro qalbidagi dard-alamning ramzidir. Sayodxon esa shunday deydi:

Ham **Makkam-Madinam**, pushti panohim,

Do‘nib emdi nechuk ela borayin. (“Oshiqnoma”, I kitob, 99-bet)

Yuqoridagi **Makkam-Madinam** so‘zlari ham poetik simvol sifatida berilgan bo‘lib, Makkadagi Madina shahrida payg‘ambarimizning qabrlari bo‘lgani uchun ham bizga u joy ulug‘ hisoblanadi. Bu erda ota-ona Makka-Madina ramziga ko‘chgan. Yoki: quyidagi misralarga murojaat qilamiz:

Mani ro‘zg‘orimni **zindon** aylama, (“Oshiqnoma”, I kitob, 130-bet)

Guljamila singlim, akam bormisan?

Yuqoridagi misrani Hamroga singlisi Guljamila aytayapti. Bu erda “ro‘zg‘orimni zindon aylama” birikmasi **meni g‘amga botirma** ma‘nosida kelib ramziylik kasb etgan.

Qazo etmay **ajal mayin ichibman**,

O‘z qo‘limdin kafan to‘nin bichibman. (“Oshiqnoma”, I kitob, 177-bet)

Bu misradagi “**ajal mayin ichmoq**” birikmasi **o‘lmoq** ma‘nosini tashib, ramziylikka ko‘chgan.

Qonsam **obi-zilolingga**,

Sanga qurbon bu jon, parim. (“Oshiqnoma”, I kitob, 185-bet)

Bu parchada “obi-zilol” so‘zi poetik simvol hisoblanadi. Yor ma‘shuqasining visoliga etishishni obi-zilol, ya‘ni **chanqagan odam suvdan ichib chanqog‘ini qondirishiga o‘xshatilgan**.

Bahlul bo‘ling bizdin haqiq otamiz,

Ey mehribon **qiblagohim** xush qoling. (“Oshiqnoma”, I kitob, 250-bet)

Bu erda qiblagoh muqaddas joy bo‘lgani uchun, **ota qiblagohday muqaddas** degan ma‘noni anglatyapti.

Biring **bolsan**, biring **sharbat**,

Biring nozik biring nuzmat,

Biring baland, biring rif‘at,

Qaysingga mehmon bo‘layin. (“Oshiqnoma”, I kitob, 279-bet)

Bu o‘rinda, “**bol**” va “**sharbat**” so‘zlari poetik simvol bo‘lib, bol ham sharbat ham shirin bo‘lganligi uchun yor jismi ularga qiyoslangan holda tilga olinayotir.

Ramziy ifodalarni ro'yobga chiqarishda turli predmetlar va ularning turli holatlariga e'tibor qaratiladi.

Inson qalbidan nozik narsa yo'q. Uni yaralash oson, lekin yaraning bitishiga imkoniyat topib bo'lmaydi. Ana shu holat "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonida ramz orqali juda to'laqonli ifodaga ega bo'lgan:

Yordin bahra olur oshiq rishtasi,  
Oshiqning xayoli yor andishasi.  
Qahr etib sindirdi **ko'ngil shishasin**,  
Emdi tuzatmoqning imkoni to'lmas.

(Oshiqnoma, II kitob, 79-bet.)

Bu erda inson qalbi shishaga muqoyasa qilinadi. Bunday qaraganda qalb bilan shisha orasida hech qanday aloqa yo'qdek. Chunki qalb mavhum narsa, shisha moddiy predmetdir. Biroq, ularni o'zaro bog'laydigan bitta tushuncha mavjud. U ham bo'lsa, qalbning ham shishaning ham nozikligidir. Quyidagi misralarda ham o'sha xususiyatni ko'rish mumkin:

Bu dunyo bir **ko'hna saroy**,  
Necha yil kechdi, necha oy,  
Navbatida shohi saroy,  
Aylanib zamon qolmadi.

(Oshiqnoma, II kitob, 92-bet.)

Olam, dunyo bilan ko'hna saroyning o'zaro ichki aloqasiga asoslangan ushbu ramziy ifodada asosiy ko'zda tutilgan badiiy maqsad dunyodagi odamlarning vaqtincha ekanligi, olamga kelgan har bir insonning bu dunyoni tark etishi tabiiyligi masalasini ko'hna saroy misolida yaqqol ko'rsatishdir. Chunki ko'hna saroyga ham uning qurilganidan beri qanchalab odamlar mehmon bo'lgan va bu maskanni tark etganlar. Demak, bu ikki tushuncha o'rtasidagi ramziy aloqadorlik vaqtinchalik maskan, makondir.

Ramziylikka xos asosiy xususiyatlardan biri mavhum tushunchani hayotda bor bo'lgan daliliy tushuncha orqali ichki aloqada ko'rsatib berishdir. Badiiy matnga e'tibor berilsa, bunday holatlar juda oddiyga o'xshab ko'rinadi, hatto

sezilmay ham qoladi. Biroq, matndagi ma'noga razm solinsa, undagi falsafiy botiniy ma'noning ko'pgina qirralari namoyon bo'ladi:

Bizning bilan xilvat tutib,  
**Og'u bolni** birga yutib,  
Aqcha kelin ot ko'tarib,  
Gulniholim, xush qol emdi.

(Oshiqnoma, II kitob, 95-bet.)

Aytmangiz firoq o'tini, ishqning o'ti yomon erkan,  
Tangrim bergan **omonatni** olguncha do'nmanam sendin,

(Oshiqnoma, II kitob, 115-bet.)

Ushbu misralarga diqqat etilsa, dastlabki to'rtlikda "Og'u bol" keyingi baytda "Omonat" so'zlari mavjud.

Ushbu so'zlar tahlil etilsa, shu narsa anglashiladiki, "Og'u, bol" so'zlari poetik ramzga aloqador bo'lib, uning negizida "achchiq-chuchuk" ma'nosi yotadi. Ma'lumki, hayotda achchiq ham bor, chuchuk ham bor, azob-uqubat ham bor, huzur-halovat ham bor. Bu tushunchalar zaharni bildiruvchi «Og'u» shirinlik anglatuvchi "bol-asal" so'zlari orqali o'z ifodasiga ega bo'lgan. Doston bosh qahramoni g'arib o'zining sirdoshi bo'lgan Gulniholga ushbu tushunchalar orqali hayotning achchiq-chuchugini birga tortib kelayotganliklarini eslatish uchun mazkur ifodaga marojaat etgan. Tilimizda "Omonat" so'zi faol ishlatiladi. Uning kundalik turmushdagi ma'nosi saqlash uchun vaqtincha berilgan narsani bildiradi.

She'riy baytda Tangri bergan omonat haqida so'z yuritilib, uning negizida Xudo insonga bergan vaqtinchalik tuhfa-jon, hayot tushunchasi yotadi.

Ramziy ifodaning ma'nosi shu qadar teranki, unda oddiygina hayotiy tushuncha orqali katta falsafiy mazmun umumlashtiriladi. Agarda misrada oshiq ma'shuqasiga men sendan o'lguncha kechmayman, deb murojaat qilsa, bu ifoda qup-quruq, oddiy tushuncha bo'lib qolar edi. Misra tarkibiga singdirilgan poetik ramz uning ma'no teranligi, bo'yoqdorligini oshirishda asosiy vosita sifatida rol o'ynaydi.

Binobarin “Omonat” soʻzi bilan jon soʻzi oʻrtasidagi botiniy aloqadorlik ikkalasining ham vaqtinchalik ekanligidir.

Dostonlarda kishini mushohadaga chorlaydigan, teran botiniy maʼno tashiydigan ramziy ifodalar juda koʻp uchraydi:

Man parini taʼrif etarman bunda,

**Joʻgidir** ullisi, kichchisi soda.

(Oshiqnoma, II kitob, 156-bet.)

Gul ichinda turar **oyning porasi**,

Oʻltirgani turar gulning orasi.

(Oshiqnoma, II kitob, 156-bet.)

Otdan tushib, borsam poyi piyoda,

Haq etirgay barcha **qulni muroda**.

(Oshiqnoma, II kitob, 183-bet.)

Ushbu sheʼriy parchalar tarkibida asosiy fikrni taʼkidlashda faol ishtirok etayotgan uchta tushuncha mavjud. Bular “joʻgi”, “Oyning porasi”, “Qul” soʻzlaridir. “Joʻgi” soʻzi xalq orasida “loʻli”larga nisbatan qoʻllanilib, **ayyor**, **tovlamachi** degan maʼnoga ega. Aslida bu soʻz “yog” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, hindistonda faoliyat koʻrsatadigan kishi ruhiga taʼsir qiluvchi oqimga aloqadordir.

Sheʼr misralarida bu soʻzning berilishidan maqsad shuki, oshiq maʼshuqasining aldamchiligi, ayyorligini ochib berish uchun ikkita opa-singilni qiyos qiladi va kattasini ayyor, kichigini soda-soddaligini taʼkidlaydi. SHunisi xarakterliki, ikki qizni taʼriflashda birinchisiga nisbatan «joʻgi” soʻzi ishlatilib, poetik ramz hosil qilingan. Ikkinchi qizga nisbatan oddiy soʻz qoʻllanilgan. Buning asosiy sababi katta opaning xarakterini yorqinroq, chuqurroq ifodalashdir.

Demak, bu ifoda negizida ikkita tushunchani oʻzaro ichki bogʻlovchi narsa ayyorlik, aldamchilikdir. “Hurliqo va Hamro” dostonidagi Bibitarlixon obrazi dostonida haqiqatan ham **ayyor**, **xudbin** tarzida tasvirlanadi.

Ikkinchi sheʼriy parchadagi “Oyning porasi» birikmasi goʻzal maʼshuqaga nisbatan ishlatilgan. Oyning goʻzallik, yor ramzi ekanligi anʼanaviy tarzda

qo`llaniladi. Lekin oyning porasi birikmasi kam ishlatiladi. Oshiq bu erda o`z yorini oyning bir parchasiga qiyoslaydi. Mazkur birikmada kichraytirish xususiyati bor. Ma'lumki, badiiy tasvirda kichraytirish usuli ob'ektning mo`'jazligini, nozikligini yanada oshirish uchun qo`llaniladi. Ushbu misralarda ham yorning go`zalligini oshirib ko`rsatish asosiy maqsad bo`lib hisoblanadi. Demak, bu ifodada ikkita tushunchani ichki bog`lovchi vosita go`zallikdir.

“Qul” tushunchasi xalq nazdida itoatkor, fidoyi, huquqsiz ma'nolarini tashiydi.

Mazkur she'riy misralarda lirik qahramon o`zini haqning quli sifatida e'tirof etadi. Agarda u o`zini haqning bandasi, ummati deb atasa, badiiy ifoda ancha bo`sh nomoyon bo`lar edi. Bunday olib qaraganda lirik qahramon o`zini kamsitganday seziladi. Biroq, haqqa qul bo`lish tushunchasi poetik ramz nuqtai nazaridan olib qaraganda faxr va iftixorga aylanadi. Chunki, har bir insonni yaratuvchi xudo deb tan olinar ekan, uning ummati o`z-o`zidan haqning quli bo`lib hisoblanadi. Demak, bu erda lirik qahramon bilan ramziy ifodani ichki bog`lovchi tushuncha itoatkorlik, fidoyilikdir. Mana shu bitta ifoda she'riy misralardagi asosiy g`oyani yaqqol ochib berishda muhim rol o`ynaydi.

Turli tasavvurlar haqida gap ketganda uni ranglarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Insoniyat o`z hayotida ranglarga hamisha e'tibor bilan qarab kelgan. “Kitobi dadam Qo`rqut” eposidagi ranglar bilan aloqador lavhani ilk faslimizda qayd qilib o`tdik.

Xorazm dostonlarida ham ranglar bilan aloqador ramziy ifodalar ko`pchilikni tashkil etadi.

Ranglar bilan aloqador tushunchalarning tarixiy ildizlari animistik qarashlarga borib taqaladi. Shu sababli inson ularga nisbatan yaxshi va yomon munosabatda bo`lib, hayotda ana shu qarashlarga asoslanib ish tutgan. Ranglarning ma'nosi nihoyatda keng doirani qamrab oladi. Biroq, eposda uning barcha qirralari o`z ifodasini topmagan. Chunki ranglar har bir obrazning hayoti va taqdiriga nisbatan qo`llanilgan.

Dostonlarda ranglar bilan aloqador ramzlarda, ko‘proq, **oq** va **qora** ranglar tilga olinadi. Bulardan tashqari yana **alvon, qirmizi, sariq, ko‘k ranglari** ham dostonlarda poetik simvol darajasiga ko‘tariladi. Oq rang **ezgulik** va **baxt belgisidir**. Qora rang esa doimo **omadsizlik, baxtsizlik, g‘am** ma‘nolarida qo‘llanadi. Shuningdek, sariq va ko‘k ranglar, **ayriliq alamlarni** ifodalasa, qirmizi va alvon (qizil) ranglar **shodlik** va **quvonch** ma‘nolarida poetik simvol vazifasini o‘taydi. Masalan: “Sayod va Hamro” dostonida Hamro safarga ketayotganida yori Salbiniyozga shunday deydi:

Mujgoning endirib, chitma qoshingni,

Kel, ey Salbim, sen kiyinma **qorani**,

Xumor –ola ko‘zidin to‘kma yoshingni,

Kel, ey Salbim, sen kiyinma **qorani**. (“Oshiqnoma”, I kitob, 10-bet.)

Bu erda qora so‘zi poetik simvol bo‘lib, **dard, g‘am** ma‘nolarida qo‘llangan.

Xazona giriftor **qirmizi gulam**,

Sahrolarda bitgan savson-sunbulam. (“Oshiqnoma”, I kitob, 72-bet.)

Bu erda qirmizi gul ijobiy ramz hisoblanib, **oshiq o‘zini qirmizi gulga** qiyos qilib, yoshlik, bokiraligini ta‘kidlayotir.

Oxir maning maslahatim na bo‘lur,

Qayg‘u birla **qizil yuzlarim** so‘lur. (“Oshiqnoma”, I kitob, 143-bet.)

Ushbu misralarda qizil rang **quvonch, shodlik** ma‘nosida kelgan.

Tog‘u-cho‘lda qizil yuzim **soraldi**,

Dargohingga omon-omon xudoyim. (“Oshiqnoma”, I kitob, 181-bet.)

Bu misralarda **soraldi** so‘zi **sarg‘aydi** degan ma‘noni bildirib, **g‘am** ma‘nosida qo‘llangan. Ma‘lumki sariq rang insonlarga xush yoqmaganligi sababli dostonlarda bu rang ko‘pincha **g‘am, alam, hijron** ma‘nosida keladi.

Yorim bergan **oq ro‘molim**,

Seni qayda qo‘yoyin man. (“Oshiqnoma”, II kitob, 143-bet.)

Bu erda “oq ro‘mol” bir butunlikka olinadi. Chunki ro‘molning o‘zi **oila ramzidir**. Ikkala soz birikkan holda **baxtli turmush** ma‘nosini ifodalayotir.

**Alvon ko‘ylak** kiyib chiqsa shamola,

Yumri-yumri bo‘lur zo‘ri qizlarning. (“Oshiqnoma”, II kitob, 319-bet.)

Bu erda alvon ko‘ylak so‘zi ramziylikka ega bo‘lib, bu misrada u **go‘zallik, chiroy** ma’nolarida qo‘llangan.

Barbod etib umrin bori yo‘qini,

Jonidin o`tkurub hijron o‘qini,

Tiriklayin yori kiyib **ko‘kini**,

Yorim aza tutg‘on joya etushdim. (“Oshiqnoma”, III kitob, 141-bet.)

Yuqoridagi misralarda ko‘k rangi **aza, motam** ma’nolarida qo‘llangan. Chunki qadimdan boshiga ta’ziyali ish tushgan odam ko‘k va qora rangdagi matolardan kiyim kiygan. Yoki:

Bunga misol qilib quyidagi misralarni ham olishimiz mumkin.

Men ketganda yig‘lab qolg‘on,

**Qora** kiyib qon yig‘lag‘on.

O‘g‘lim deyib faryod qilg‘on,

Mehribon enama salom. (“Oshiqnoma”, III kitob, 278-bet.)

Xullas, dostonlarda ranglarga befarq qaralmaydi.

Oq rang-ezgulik, qora rang-g‘am alam, sariq rang-hijron, qizil rang-yoshlik, go‘zallik, ko‘k rang-ma’yuslik kabi turli ruhiy holatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

Dostonlarda narsa predmetlar va turli tasavvurlarga oid poetik ramzlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Masalan,

Sensan avval meni yo‘qdan bor etgan,

**Buzilgan shahrimni** imorat ayla.

(“Oshiqnoma”, V kitob, 3-bet. )

Bu misralar “Tohir va Zuhra ” dostonidan olingan bo‘lib, podsho xudodan o‘g‘il tilab nola qiladi. Bu erdagi **buzilgan shahar** poetik simvol bo‘lib vayron bo‘lgan ko‘ngil ma’nosida ishlatilgan. Yoki yana bir misol,

**Zahar icharman, sharbatim yo‘q , bolim yo‘q,**

Judo tushdim, vatanim yo‘q, elim yo‘q.

(“Oshiqnoma”, V kitob, 3-bet. )

Bu misralarda zahar ichmoq g'am - tashvish chekmoq ma'nosidagi poetik ramz bo'lsa, sharbat yo'qligi va bol yo'qligi quvonchli kunlar yo'q ma'nosidagi ramzdir.

Nechuk to'ydur ushbu **kunlar tutulg'on,**

Ehsonning o'rniga ziyon bitilg'on,

(“Oshiqnoma”, V kitob, 8-bet. )

Bu erda kun tutulg'on so'zlari poetik simvol bo'lib, kun tutulishi yomonlik ramzi bo'lganligi uchun g'amli kunlar ma'nosida qo'llangan.

Shu dostondagi Tohir sevgilisi Zuhrani qumsab aytgan gaplari:

Dardlar maning bilan bo'ldi,

**Tabibim, darmonim** qoldi.

(“Oshiqnoma”, V kitob, 32-bet. )

Bu misralarda Tohir Zuhrani tabibim, darmonim deb ataydi. Tabib dardlarga darmon bo'lganligi uchun Tohir yorini shunga qiyoslagan va ishq dardiga darmon deb bilgan.

Shuni ham aytish kerakki, ko'k rangning ma'yuslikka aloqadorligi, aza bilan bog'liqligi islom aqidalari bilan bog'liq bo'lsa kerak. Chunki, aza bilan daxldor barcha tushunchalar dostonlarda asosan qora rang orqali ramziy ifodaga ega bo'ladi.

Umuman olganda, dostonlarda narsa, predmetlar, turli tasavvurlarga oid ramziy ifodalar katta ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning qaysi o'rinda qo'llanilganligi ijodkor va ijrochi baxshi tasavvuri bilan bog'liq bo'lib, so'zdagi botiniy ma'nolarni mazmundor ifodalash uchun xizmat etadi, matnning bo'yoqdorligini oshiradi.

## 1.2 DOSTONLARDA RAQAMLAR SIMVOLIKASI

Xalq dostonlarida raqamlarga e'tibor juda kuchli. Shu bilan birga ularning tarkibida barcha raqamlar ham ishlatilavermaydi. Chunki, tilga olingan har bir raqamning ishlatilishi muayyan maqsadni ko'zlagan holda amalga oshiriladi. Raqamlar xalqning urf-odatlar va tarixi bilan uzviy aloqaga egadir.

“Raqamlar haqidagi xalq qarashlari qadimiy mifologik ramzlar sistemasining raqam belgilari to'g'risidagi tasavvurlari asosida paydo bo'lgan”<sup>1</sup>.

Shuni ham aytish lozimki dostonlarda qo'llanilgan barcha raqamlar ham ramziy ma'no bildiravermaydi. Masalan, “bir” raqami ko'p takrorlanadi, biroq u o'zining semantik doirasidan chiqib, ko'chim sifatida shakllanmaydi.

“Ikki” raqamida esa “juftlik”, dualizmga ishora qiluvchi ramziylik mavjud: “Bo'zo'g'lon” degan podshoning Og'abek va Bobobek degan **ikki sarkardasi** bor erdi”. (Oshiqnoma, III kitob, 10-bet.)

Etib edim taxt ustinda shul kecha,

Ikki yondin **ikki yo'lbars** keldilar.

(Oshiqnoma, III kitob, 27-bet.)

“Yusufbek, Ahmadbek bandi bo'lg'ondin beri

**ikki qaldirg'och** zindonda uy qurib o'zga yoqqa ketmas erdi”.

(Oshiqnoma, III kitob, 95-bet.)

Misollarda ta'kidlangan “Ikki sarkarda”, “Ikki yo'lbars”, “Ikki qaldirg'och” birikmalari juftlik tushunchasining ramziy ifodasidir. Ikki sarkarda Og'abek va Bobobek bo'lsa, ikki yo'lbars Yusufbek va Ahmadbeklardir. Ikki qaldirg'och ham juftlikdir. Bu juftliklarning barchasi dualizm bilan aloqaga kirishadi.

Dostonlarda “uch” raqami juda faol ishlatiladi: “Azbarxo'ja **uch kecha-kunduz** to'y berdi”. (Oshiqnoma, II kitob, 115-bet.)

Ul boshlab choh ichra kirgan,

O'ng kaftiga panja solg'on,

**Uch gul** berib, holing so'rg'on,

Kuloh kiygan kimlar erdi

---

<sup>1</sup> Jo'raev M.O'zbek halq ertaklarida «Sehrli» raqamlar. –T.: Fan, 1991.B. 37.

Valiylar ichra siylang‘on,  
Haqning yo‘lig`a shaylang‘on,  
Dunyoni **uch yuz** aylang‘on,  
Behad oldin pirlar erdi. (Oshiqnoma, III kitob, 99-bet.)

“Yusufbekning qo‘lig‘a **uch qizil gul** berib, orqasiga **uch panja** urib, Olov xo‘ja birlan Shayx Sharofxo‘ja jilovinda yuriyberdilar”. (Oshiqnoma, III kitob, 98-bet.) Bu misollardagi “Uch kecha-kunduz”, “Uch gul” “Uch qizil gul” kabi birikmalarning barchasida nimagadir ramziy ishoralar bor.

Ibtidoiy dunyoqarash bo‘yicha uch raqami ko‘plikni anglatgan. Chunki ibtidoiy jamoa davrida ayrim qabilalar ko‘pincha atigi uchgacha sanashni bilganlar<sup>2</sup>.

Shu sababdan ham “uch kecha-kunduz”, “uch yo‘l” “uch og‘a-ini” ana shu ibtidoiy ma‘noni tashiydi. Yuqoridagi “uch qizil gul” birikmasida esa yanada chuqurroq ramziy ma‘no mavjud. Yusuf va Ahmadlar zindonda yotganda tush ko‘rishadi. O‘sha tushda ularga chiltanlar “Uch qizil gul” ni taqdim qilishadi. Ular uch kundan keyin ozodlikka chiqishadi.

Dostonlarda “yetti” raqamining tez-tez qo‘llanilishiga guvoh bo‘lish mumkin. Uch raqami qancha faol ishlatilsa, yetti undan ham ortiq darajada ko‘zga tashlanadi:

**Yetti** yilga ketgan yorim,  
Xush keldingiz sabo birlan.  
Ko`zim yo`lda kunim kechdi,  
Ishim jabru jafo birlan. (Oshiqnoma, II kitob, 135-bet.)

“Bir necha manzillik yo‘l yurib yetti **oy, yetti kun** deganda Urganch yurtining bog‘lari ko‘runa berdi». (Oshiqnoma, III kitob, 133-bet.)

**Yetti yil** solding jafog‘a,  
Etushdim zavqu safog‘a.  
(Oshiqnoma, III kitob, 107-bet.)

**Yetti yil** uhradim hajr konina,

---

<sup>2</sup> Kosven M.O. Ibtidoiy madaniyat tarihidan ocherklar. –T.: Fan, 1960. B. 153.

Choshgoh mahal keldim sanam yonina.

(Oshiqnoma, II kitob, 111-bet.)

Shabgirda yoqib chirog‘i,

Yaqin qilmoqg`a yirog‘i,

Oramizda **yetti tog‘i**,

Man o‘tarman gumburlatib.

(Oshiqnoma, III kitob, 106-bet.)

Ushbu she‘riy parchalardagi yetti raqamlarining ma‘nosiga e‘tibor berilsa ularning barchasida **uzoq muddat** mazmuni anglashiladi. Shu jihatdan qaraganda mazkur raqam mohiyati ham ibtidoiy tushunchalarga borib bog‘lanadi.

“Bu raqam tushunchasini anglatuvchi so‘z “yetti”ning o‘zagi “yetmoq” fe‘lidan olingan. “Yeti” aslida hisobning tugaganini, ya‘ni sanoq nihoyasiga yetganligini bildiradi. Keyinchalik sanoqda yangi usullar kashf etilib, hisob-kitob an‘anasi takomillashgach, bu so‘z ilgarigi sanoq sistemasidagi oxirgi raqam atamasi sifatida qo‘llanila boshlangan”<sup>3</sup>.

Shu boisdan ham yuqoridagi misollardagi yetti raqamida uzoq muddat bilan aloqador tushunchaga ramziy ishora sezilib turadi. Bu raqamlar qatoriga “to‘qqiz” raqami ham kiradi. Negaki, dostonlarda to‘qqiz raqamiga nihoyatda e‘tibor kuchli.

Dostonlarning nasriy va she‘riy qismlarida bu raqamga juda ko‘p duch kelinadi. Buni quyidagi misollarda ko‘rish mumkin:

“Oydan oy o‘tdi, kundun kun o‘tdi, ana **to‘qqiz** oy, **to‘qqiz** kun, **to‘qqiz** soat **to‘qqiz** minut o‘tib ulkan ayoldan ikki o‘g‘il dunyoga keldi» (Oshiqnoma, III kitob, 269-bet.)

“Eralixon bularni **to‘qqiz** qavat to‘shalgan kimxobning ustiga o‘tirg‘uzib, bir soatda ikki to‘qqiz taom torttirdi”.

(Oshiqnoma, III kitob, 24-bet.)

**To‘qqiz** qul berayin kumush qalpoqli,

**To‘qqiz** bedov beray tillo jabduqli.

(Oshiqnoma, III kitob, 30-bet.)

---

<sup>3</sup> Jo‘rayev M. O‘zbek xalq ertaklarida “Sehri” raqamlar –T.: Fan, 1991. B. 104.

Otgʻon oʻqi **toʻqqiz** fildin oʻtardi,  
Kofirlarni yerga yakson etardi.

(Oshiqnoma, III kitob, 170-bet.)

“Ul har kunda bir qal’ani egallab, **toʻqqiz** kunda **toʻqqiz** qal’ani oʻz qoʻligʻa oldi”. (Oshiqnoma, III kitob, 171-bet.)

Keltirilgan koʻchirmalardan anglashiladiki, toʻqqiz raqami ham asosan muddatning, sonning, narsa-predmetning koʻpligiga ramziy ishora sifatida qoʻllanilgan. Yuqorida uch sonining xususiyatini bayon qilgan edik. Toʻqqiz raqami aslida ana shu uchlikning uchlanganligidir.

Jamiyatning quyi bosqichlaridan boshlab razm solinsa, sonlar asta-sekin koʻpayib toʻqqizgacha kelgan va keyinchalik uzoq davrlargacha ushbu raqam koʻp miqdordagi sonni ifodalab kelgan. Yuqorida keltirilgan misoldagi «Ikki toʻqqiz taom» iborasi bu fikrimizni tasdiqlaydi. Chunki, nima uchun oʻn sakkiz demasdan “ikki toʻqqiz” deb atalishining oʻzi hali toʻqqizdan yuqori sonning mavjud emasligini koʻrsatadi.

Xorazmda hozirda ham toʻy marosimlarida kelinning uyiga joʻnatiladigan non va patirlar toʻrt toʻqqiz non, toʻqqiz toʻqqiz patir tarzida hisoblanadi. Demak, ushbu raqam toki “O” (nol) kashf qilinguncha hisob-kitobda eng katta son sifatida foydalanilgan.

Dostonlarda ushbu raqamlar bilan birga **qirq** raqamiga ham katta eʼtibor qaratiladi. Bizning fikrimizcha, jamiyat taraqqiyotining soʻnggi bosqichlarida qirq raqami uch, yetti, toʻqqiz raqamlarining vazifasini bajara boshlagan. Chunki, “Uch kecha-kunduz toʻy” “Qirq kecha kunduz toʻy”, “Uch ogʻa-ini”, “uch yigit”, “qirq yigit” kabi iboralar bilan almashtirila boshlagan.

Darhaqiqat qirq soni qatnashgan iboralar tahlil qilinsa, ularning mazmunida koʻp miqdor, oʻz navbatida dabdaba, moʻl-koʻlchilik ramzi koʻzga tashlanadi:

“Ana murodu maqsadlarina etdi. **Qirq** kecha-kunduz toʻy-tomosha berib, ota-onasiga qoʻshildi” (Oshiqnoma, III kitob, 322-bet.)

“Albandjon yurtigʻa borib, hamma birla koʻrishib, soʻrashib 40 kun toʻy berdi. Sozanda, goʻyanda barchaning vaqti xush boʻldi». (Oshiqnoma, II kitob, 171-bet.)

“Yusufbek qirq yigitni yoniga saylab olib, alarga Ashurbek degan yigitni bosh etib, dushman birlan g‘azot qilur erdilar”. (Oshiqnoma, III kitob, 13-bet.)

Keltirilgan parchalardagi qirq soni bilan aloqador voqealarning barchasi mahobat va tantanavorlikning ramziy ishorasi sifatida berilgan.

Demak, raqamlar bilan bog‘liq tasavvurlar jamiyat taraqqiyoti bilan tadrijiy o‘shida davom etgan. Bu fikrimizni quyidagi misollar ham tasdiqlaydi:

Qirq ming bedov bersin tillo egarli,  
Qirq ming tuya bersin moyali, narli,  
Qirq ming qul yubarsin zarrin kamarli,  
Qirq ming juvon chashmi shahlo yubarsin.

(Oshiqnoma, III kitob, 172-bet.)

Ko‘rinadiki, qirq raqami so‘nggi davrlarda qirq mingga chiqqan va yana o‘sha mahobatlilik ko‘rinishini saqlab qolgan. Ramziylik o‘zgarmagani holda ramziylikning daraja miqdori yuqori bosqichga ko‘tarila borgan.

Xorazm dostonlarida ushbu raqamlardan tashqari “o‘n to‘rt” raqami ham e‘tiborni o‘ziga jalb qiladi. Misollarga murojaat qilaylik:

Parim o‘xshar o‘n to‘rt oqshomli oya,  
Oq yuzinda siyo zulflari soya.

(Oshiqnoma, II kitob, 140-bet.)

“Sayodxonning husni qish ochilg‘on ra‘noga o‘xshab, Salbiniyozning husni **o‘n to‘rt** kechalik oyga o‘xshab turdilar”. (Oshiqnoma, I kitob, 93-bet.)

“Olimjon So‘njonning yuziga razm solib qarasa, **o‘n to‘rt** kechalik oydek bo‘lib bog‘ni munavvar qilur erdi”. (Oshiqnoma, I kitob, 300-bet.)

O‘n to‘rt raqami garchi o‘xshatish o‘rnida qo‘llangan bo‘lsa-da uning negizida balog‘atga etish ramzi mujassamlashgan. O‘n to‘rt kunlik oy to‘lishib, nur sohib, go‘zallik kasb etishining 14 yashar qizning to‘lishib balog‘atga etishi o‘rtasida ichki bog‘lanish mavjud. Aslida bu raqamning ildizlari juda qadimiy bo‘lib, “Avesto” qonuniyatlari bilan bog‘lanib ketadi. Zardushtiylik ta‘limotiga

ko‘ra 14 yosh balog‘at yoshi hisoblangan<sup>4</sup>. O‘g‘il bolalarga o‘sha yoshda yigit sifatida belbog‘ bog‘lashgan. Belbog‘ esa tuyaning junidan to‘qilgan. Buni Xorazmda qa‘riyalar hozirda ham eslashadi.

Bulardan tashqari, dostonlarda, “Uch yuz oltmish kaniz” “O‘n sakkiz ming olam”, “O‘n ikki ming mukarrar”, .. “Etmish ikki sohibqiron” kabi ko‘plab iboralar uchraydiki, ularning negizida islomiy ramzlar bo‘lishi mumkin. Dostonlardagi ming, o‘n ming, yuz ming kabi sonlar esa mubolag‘a tarzida aytilgan iboralar qatoriga kiradi. Umuman olganda dostonlar tarkibidagi raqamlarning asosiy qismi turli ramziy qarashlar bilan aloqadordir.

Raqamlarga daxldor ramziy ifodalarning ildizlari ibtidoiy turmush qadar qadimiyydir. Insonlar o‘ngacha sanash qobiliyatiga ega bo‘lgan davrlarda ayrim e‘tiqodlar asosida ba‘zi bir raqamlarga magik tus berganlar. Shuning natijasi o‘laroq ana shu raqamlar asta-sekin ramzlarga manba bo‘lib, badiiy asarlar tarkibidan joy ola boshlagan. Bu xususiyat hozirgacha marosim folklorida o‘zining ahamiyatini saqlab kelmoqda.

---

<sup>4</sup> Yo‘ldoshev J., Hasanov S. «Avasto»da ahloqiy-ta‘limiy qarashlar.-T.: 1992.B.22.

## II bob TABIAT VA O‘SIMLIKLARGA ALOQADOR RAMZLAR

Dostonlarda poetik ramzlarning qo‘llanilish doirasi juda kengdir. Poetik ramzlarni ishlatish dostonlar matniga ma’nodorlik va jozibadorlik qo‘shadi.

Dostonlardagi tabiat hodisalari va o‘simliklarga aloqador ramzlar ko‘proq oshiq va ma’shuqa obrazlarini yorqinroq gavalantirishga xizmat qiladi. “Oshiq” dostonlarining qo‘lyozma nusxalarida **shamshod, sarv, tubi** kabi daraxtlar ko‘proq yor ramzi sifatida ishlatiladi. Og‘zaki variantlarda esa olma, anorga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Olma va anor meva sifatida ishlatilganida, asosan, sevgi ramzida keladi, daraxt sifatida kelganda farzand ma’nosini anglatadi:

Haq nasib etsa ko‘rarman,

**Olma, norimdin** xabar ber. (“Oshiqnoma”, II kitob, 188-bet)

O‘simliklardan, asosan, gul eng ommaviy ramzdir. Gul-ma’shuqa sevgi, ezgulik timsoli sifatida beriladi:

Oshiqning **toza guli** so‘lmagay. (“Oshiqnoma”, II kitob, 174-bet)

Bu erda gul so‘zi poetik simvol bo‘lib, ma’shuqa ma’nosida kelgan. “Sayod va Hamro” dostonidan quyidagi parchani olib ko‘ramiz, Salbiniyoz Hamroning o‘zga yurtlarga ketayotganini bilib, Oshiq Ahmadga, ya’ni Hamroning otasiga qarab, zor-zor yig‘lab, bir g‘azal aytgani:

Bog‘lanibdur maning baxtim,

Yiqilibdir toji taxtim,

Sar hovuzim sarvi raxtim,

Man **chinorimdan** ayrildim. (“Oshiqnoma”, I kitob, 14-bet)

Bu misralardagi chinor so‘zi ramziy bo‘lib, u ko‘p yillik, bo‘yi baland daraxt **Hamro timsolida berilgan.**

**Bir gul edim** uzding toza yaprog‘i,

Siynam uzra qo‘yding hijronning dog‘i. (“Oshiqnoma”, I kitob, 15-bet)

Bu erda Hamroning yori Salbiniyoz o‘zini gul timsolida idrok qilib, uning yaprog‘ini uzish tushunchasi orqali hijronni ramziylashtirgan.

Yana bir misol:

Qahr etmagil sevar yorim,

Bog‘ ichinda **olma, norim**. (“Oshiqnoma”, I kitob, 28-bet)

Bu misradagi **bog‘, olma, nor** so‘zlari poetik simvol bo‘lib, **bog‘-ko‘ngil olma, nor-sevgi** ma’nosida qo‘llangan.

Bir salotin bo‘yilim, **sarvi** sanobar,

Lablaringda shirin-shakar bol o‘lsin. (“Oshiqnoma”, I kitob, 53-bet)

Bu erda oshiq o‘z ma’shuqasini **sarv daraxtiga qiyoslagan**, chunki sarv daraxti juda chiroyli bo‘lganligi uchun ham poetik simvol darajasiga ko‘tarilib, yor timsoliga aylantirilgan.

Og‘a beklar, bormi meningdek bo‘lgan,

**Bog‘i xazon urib, yaprog‘i so‘lgan?** (“Oshiqnoma”, I kitob, 82-bet)

Bu misradagi yaproq-sevgi ramzi bo‘lib, sevgining barbod bo‘lishi xazon bo‘lgan yaproqqa qiyoslangan.

**Nihol** ekib murodima etmadim,

Siynam ochib soyasinda yotmadim. (“Oshiqnoma”, I kitob, 108-bet)

Bu erda nihol so‘zi poetik simvol bo‘lib, **farzand** ma’nosini anglatgan.

Yoki:

Biring **chaman**, biring **gulzor**,

Biring **olma**, biring **anor**. (“Oshiqnoma”, I kitob, 278-bet)

Misralaridagi **chaman, gulzor, olma, anor** so‘zlari ramzlar bo‘lib, ular **ma’shuqa** ma’nosida kelgan.

Tabiat va tabiat hodisalari, osmon va uning yoritqichlari insonlarga ilgaridan jumboq masalalar bo‘lib kelgan.

Eng qadimgi miflarda ayolni **quyosh, oyni** erkak sifatida e’tirof etganlar<sup>2</sup>.

Ayrim hollarda quyoshni ota, oyni ona, yulduzlarni ularning bolalari tarzida idrok qiluvchi topishmoqlar ham uchrab qoladi:

Bir otasi bir onasi,

Necha yuz ming bolasi<sup>3</sup>.

---

<sup>2</sup> Mifы legendы Avstralii.-M.: Nauka, 1976. S.11.

<sup>3</sup> Topishmoqlar, «Adabiyot va san’at», 1981. B.10.

Bu tasavvurlarning barchasining negizida ramziy tushunchalar yotadi. Binobarin, «Ramziy tasavvur hali inson o‘z fikri doirasida tabiatdan o‘zini ayrim holda tasavvur qila olmaydigan, animistik qarashlar girdobida yashayotgan bir davrda yuzaga kelgan»<sup>4</sup>. Mana shu sababga ko‘ra osmon yoritqichlari ham turli folklor asarlarida turlicha tarzda ramziy ifodalar sifatida ro‘yobga chiqishadi. Masalan, quyosh goh ayol, goh erkak gohida ma’shuqaning ko‘zi, oy esa ba’zan erkak, ba’zan ayol, ayrim hollarda yorning chehrasi sifatida ramziy ishora sifatida tanlanadi.

«Roi Chin» dostonidagi ushbu misralar bu fikrimizga isbot bo‘la oladi:

Shukr, haqning dargohinda eshitdim yorning xabarin,  
Etishsam **shamsu mohina**, ko‘rsam davlatli diydorin.

(«Oshiqnoma», I kitob, 151-bet.)

«Oshiq Alband» dostonida ham ushbu xususiyatni o‘zida mujassamlashtiruvchi satrlar uchraydi:

Gul yuzinga tushmish **shams** ila **qamar**,  
Shul dilbar oshiqning labidin ichar.

(«Oshiqnoma», II kitob, 144-bet.)

Yuqorida keltirilgan misralarda ta’kidlanishicha, oshiq ma’shuqa bilan diydorlashish uning shamsu mohiga boqishni orzu qiladi. Bu erda shams-quyosh yorning ko‘zi, moh-oy ma’shuqaning chehrasi ma’nosida berilgan.

Ikkinchi misolda yor ma’shuqasining yuzida shams va qamar nur sochib turganligiga ishora qilinadi.

Har ikkala parchada ham quyosh yorning ko‘zi, oy uning chehrasi ma’nosida qo‘llanilgan. Bu tushunchalarning o‘zaro ichki bog‘lanishiga e’tibor qarataylik. Quyosh bilan ko‘zning o‘zaro o‘xshashligi ularning charog‘onligi, nur taratib, charaqlab turishi bilan diqqatga sazovorligidir. Oy bilan chehraning ichki bog‘lanishi ularning oq-oppoqligi, yashnab turganligi, ko‘zga yarq etib tashlanishidir.

---

<sup>4</sup> Musaqlulov A. O‘zbek halq lirikasining tarihiy asoslari va badiiyati. Doktor.dissertatsiya avtoreferati. –T.: 1995. B.21.

Yuz-koʻzning oy ramzida tilga olinishi «Goʻroʻgʻli» turkumi dostonlarida ham tez-tez uchraydi:

Tili shakar, **yuzi qamar**,

Lablaridan boli domar. («Oshiqnoma», IV kitob, 182-bet.)

**Shams** ila **qamardur** koʻzing nishoni,

Toʻti takallumdir soʻzing nishoni, («Oshiqnoma», IV kitob, 187-bet.)

Birinchi ikki misrada «Yuzi qamar» birikmasi maʼshuqa qiyofasini bildiradi. Ikkinchi misolda maʼshuqa koʻzining shuʼlasi bilan quyosh va oyning nuri oʻrtasidagi ichki aloqa mavjud.

Quyidagi satrlar mubolagʻa tarzida berilgan boʻlsa-da, uning negizida ramziy timsol asosiy oʻrinni egallab, yor chehrasi bilan oy oʻrtasidagi goʻzallika asoslangan ichki aloqa oʻzini namoyon qilib turadi:

Yuzing **oydan** olar boji,

Vatandan etding xiroji. («Oshiqnoma», IV kitob, 248-bet.)

Qadimgi mifologiyadagi singari **oy** va **quyosh** ayol va erkak timsolida dostonlar tarkibida istifoda etilsa-da, Xorazm eposida koʻproq bu osmon yoritqichlari maʼshuqalar obrazini tasvirlashda ishtirok etishadi. Buning yorqin namunalari «Tohir va Zuhra» dostonidagi sheʼriy parchalarda yaqqol koʻzga tashlanadi:

Birisi qiymirar, biri qosh qoqar,

Biri **quyosh**, biri **oy** boʻlib boqar,

Birisi suv separ, birisi yoqar,

Jonimning ofati, balosi qizlar<sup>5</sup>.

Zuhra va Mohimga oshiq boʻlgan Tohir tilidan aytilgan bu misralarda u qizlarning bittasini quyoshga, ikkinchisini oyga qiyoslaydi. Bu erda ramziy obraz qilib tanlangan ikkita osmon jismi ham oʻzaro teng qiyofada tilga olinadi va ular ulugʻvorlik, goʻzallik maʼnosi bilan oʻzaro ichki uzviy aloqaga kirishadilar hamda maʼshuqa timsolini namoyish etadilar. Bu fikr quyidagi misralarda yanada oydinlashadi:

---

<sup>5</sup> Ojiza. –T.: 2003, 58-bet.

Mohimjon to'lgan **oy**, shu'lasin sochar,  
Zuhrajon oshiqning ko`nglini olar,  
Biriga yuzlansam, birisi qolar,  
Jismimda jonimning qal'asi qizlar. (Ojiza, 58-bet.)

Shuni ham ta'kidlash zarurki, ma'shuqalarga nisbatan oy timsolini tanlash faolroq qo'llaniladi:

Shohsanam qiz **mohlar ichra mohidir**,  
Oyu yil chekkanim shuning ohidir,  
G'arib Shohsanamning qiblagohidir,  
Tilida sanosi bordur Sanamning. («Oshiqnoma», II kitob, 124-bet.)

**Shamsi qamar** yuzlik mohi anvarim,  
Ko'zlari mastonim, qaydin bo'lursan?  
(«Oshiqnoma», III kitob, 231-bet.)

Mastona ko'z **oyim**, qomati shamshod,  
Quloq solib, bu afg'ona, kel emdi. («Oshiqnoma», III kitob, 233-bet.)

She'riy parchalarning barchasida ma'shuqaga nisbatan oy timsoli ishlatiladi.

Xorazm dostonlarining aksariyati yozma nusxalarda tarqalganligi sababli ularning tarkibida qo'llaniladigan osmon yoritqichlari forsiy, arabiy o'zlashmalar vositasida **shams, xurshid, qamar, moh, hilol** tarzida ishlatiladi.

Dostondagi ma'shuqa obrazlariga nisbatan qo'llaniladigan bu timsollar ba'zan oshiq'larga qarata murojaatlarda ham tilga olinadi.

«Go'ro'g'li» turkumi dostonlarida oy timsoli eposning bosh qahramoniga qarata qo'llanilganini ko'rish mumkin:

Go'ro'g'li olamning **mohi**,  
Sizlar uchun chekdim ohi,  
Kelur go'zallarning shohi,  
Adabli, ishvali qizlar. («Oshiqnoma», IV kitob, 170-bet.)

Bu erda bir narsaga e'tibor qaratishga to'g'ri keladi. Oy timsolining ayollarga nisbatan ramziy ifoda sifatida qo'llanilishida asosan timsol bilan ayol

o'rtasidagi muqoyasa go'zallik bilan ichki aloqaga ega. Keyingi misoldagi oy timsolining Go'ro'g'liga nisbatan berilishida ramziylik go'zallik chegarasidan ham chiqib, salobatlilik, hukmronlik kabi tushunchalarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Unda Go'ro'g'lining «Olamning mohi», deb tilga olinishi ham fikrimizni tasdiqlay oladi.

Dostonlarda osmon yoritqichlaridan bo'lgan yulduz haqida ham muayyan ramziy ifodalar uchrab qoladi.

**Yulduz** bilan aloqador tushunchalar ham quyosh va oyga nisbatan qo'llaniladigan timsoliy muqoyasalarga yaqin keladi. Ba'zida u go'zallik, ma'shuqa ramzida beriladi:

Saharning **tong yulduziyam**,

Hasan vazirning qiziyam,

Muloyimxonning o'ziyam,

Najaba qurbona keldim. ( «Oshiqnoma» IV kitob, 107-bet.)

She'riy parchada lirik qahramon sifatida namoyon bo'layotgan **Muloyimxon** o'zini porlab turgan **tong yulduzi** timsolida beradi.

Yulduz bilan bog'liq ayrim tushunchalar ham mavjudki, ularda yulduz baxt timsoli sifatida ko'zga tashlanadi. Xalq orasida ham «yulduzi yarashibdi», «yulduzi yulduziga to'g'ri kelibdi» degan iboralar ishlatiladiki, bu iboralar negizida ham baxt-saodat, ahillik kabi tushunchalar yotadi. Quyidagi she'riy parchada ushbu xususiyat ko'rinadi:

Xalifam yo'liqdi mango bir mojaro,

Baxtimning **yulduziga** chekmisham qaro,

Yig'layub yugurdim tog'dinu tog'a,

Rostin degin, bu tushayon ko'rmisham. («Oshiqnoma», III kitob, 221-bet.)

Ushbu she'riy parchada «**Baxt yulduzi**» haqida so'z boradi. Unga qaro chekilishi baxtsizlik tushunchasini anglatadi.

Dostonlar tilida quyosh, oy yulduzlar bilan birgalikda tabiat hodisasi bo'lgan **chaqmoqqa** ham e'tibor kuchli. Buning asosiy sabablaridan biri uning ham nur,

goʻzallik, yorugʻlik bilan aloqadorligidir. Shu sababli chaqmoq hamisha yor-  
maʼshuqa chehrasining nurafshonligiga nisbatan qoʻllaniladi:

Jamoli **barq** urar olama sulton,

Koʻzima bir mohitobon koʻrindi. («Oshiqnoma» II kitob, 171-bet.)

Jamoling **barq** urib erning yuzina,

Yuzingning shuʼlasi osmon chopdi.

(«Oshiqnoma» IV kitob, 68-bet.)

Chaqmoqqa nisbat berilgan ramziy ifodalarda hamisha arabcha oʻzlashma  
«barq» soʻzi qoʻllaniladi. Buning sababi ifodaning boʻyoqdorligini taʼminlashdir.

Shunday qilib, dostonlarda quyosh va oy hamisha ijobiy obrazlarning  
goʻzalligini, koʻrkam va salobatligini ifodalashda ramziy ifoda sifatida tanlanadi.  
Bu ifoda erkak va ayolga nisbatan aralash holda qoʻllanilsa-da, oying maʼshuqa  
obraziga nisbatan istifoda etilishi ustuvorlik kasb etadi.

**Yulduz** va **chaqmoq** kabi ramziy ifodalarning berilishi esa ancha kam  
ishlatiladi. Tabiat haqida soʻz yuritganda yil fasllari alohida koʻzga tashlanadi. Har  
bir fasl insonga oʻz xususiyati bilan turlicha taʼsir koʻrsatgan. Shu boisdan  
dostonlarda yil fasllar bilan bogʻliq ramziylik ham katta ahamiyatga ega. Bular  
quyidagilardir. Masalan: “Roi Chin” dostonida quyidagi misralar uchraydi:

Maning bu **qishlarim bahor, yoz boʻlur,**

Kimsa bu xabarda sarafroz boʻlur (“Oshiqnoma”, I kitob, 142-bet.)

Bu erda birdaniga uchta faslni **qish, bahor, yozni** keltirish bilan ramziylik  
amalga oshirilgan boʻlib, qish sovuq boʻlganligi uchun doimo **gʻam, tashvish**  
maʼnolarida qoʻllansa, bahor va yoz hamma narsaning gullab yashnab turgan vaqti  
misolida **baxt, quvonch, shodlik** maʼnolarini anglatadi. Yuqoridagi misradagi  
mazmun ana shu fikrni ifoda etadi.

Baʼzan qish fasli yor va maʼshuqa oʻrtasidagi ayrilqni ham anglatadi:  
Masalan, lirik qahramon qishni **hijron** soʻzi bilan yonma-yon keltirib, uni **ayriliq,**  
**gʻam** maʼnolari ramzida beradi:

Etib **hijron qishi** oʻtdi,

Mevali bog‘larim maning. (“Oshiqnoma, I kitob, 154-bet.)

Bahor, yoz fasllari ba‘zan **ma’shuqa** ma’nosida kelsa, ba‘zan **farzand** ma’nosida ham kelishi mumkin:

Mani qo‘yib g‘amli **hijron qishina**,

Qiynamag‘il, **bahor, yozim** ketmag‘il. (“Oshiqnoma”, I kitob, 208-bet.)

Bu erda bahor va yoz so‘zlari orqali **farzand** ma’nosi ifodalangan. Bunda Edigoning onasi o‘g‘liga uzoq elga ketma, deb nasihat etganida o‘g‘liga bahor, yozim, degan ramziy ifodani ishlatadi.

Biring so‘na, biring g‘ozsan,

**Biring bahor, biring yozsan**, (“Oshiqnoma”, I kitob, 279-bet.)

Bu erdagi misralarda esa bahor, yoz fasllari orqali **ma’shuqa** ma’nosi ifodalangan. Ushbu ramziy ifodalar dostonlar tilining yanada jozibador chiqishiga yordam beradi.

Nechun yuz o‘girdi maktabxonadan,

Toza ochilg‘on **tar g‘unchani** ko‘rdingmi,

(“Oshiqnoma”, V kitob, 7-bet.)

Yuuqoridagi misrada Tohir Gulqamardan yori Zuhrani so‘rab uni g‘unchaga qiyoslaydi va tar g‘uncha deb ataydi. Yoki:

San bir **gulsan**, man xoringman,

Chin oshiqi diyodoringman,

(“Oshiqnoma”, V kitob, 16-bet.)

Bu erdagi gul so‘zi poetik simvol bo‘lib Tohir yorini gulga o‘hshatgan.

Yigitlari olma – anordin uzarlar,

**Olmali – anjirli bog‘dan** ayrildim.

(“Oshiqnoma”, V kitob, 46-bet.)

Bu misralardagi olmali – anjirli bog‘ deganda Tohir yorini olmali –anjirli bog‘ga qiyos qilgan.

Ko‘rgan der: “Kimning yoridur”,

Ul **fasli bahorim** keldi.

(“Oshiqnoma”, V kitob, 10-bet.)

Fasli bahor so‘zi poetik ramz hisoblanadi, bahor yangilanish va yasharish, go‘zallik fasli bo‘lganligi uchun Tohir Zuhрани bahor fasliga o‘xshatgan.

## 2.1 DOSTONLARDA QUSHLAR OLAMI BILAN BOG‘LIQ RAMZLAR

Xorazm dostonlarida qushlarga oid ramzlar ham anchani tashkil qiladi. Dostonlarda ko‘proq **bulbul**, **shahboz**, ayni paytda **lochin**, **shunqor**, **o‘rdak**, **zog‘lar** ko‘zga tashlanadi. Bulbul, lochin, shunqor, so‘zlari **oshiq** yor ramzida ishlatilsa, o‘rdak (so‘na) ko‘p hollarda **ma’shuqa** ma’nosida ishlatiladi.

Dostonlarda qushlar bilan aloqador ramzlarda salbiy ma’noni anglatadigan **qarg‘a**, **zog‘** so‘zlari ko‘pincha yor va ma’shuqa o‘rtasiga sovuqchilik solmoqchi bo‘lgan dushman ma’nosida qo‘llanadi. Bu faslimizda dostonlardagi qushlarga oid poetik simvollardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz. Masalan: “Sayod va Hamro” dostonida Hamro kanizlarni ta’rif qilib, Sayodxonga oshiqligini bayon etib, bir g‘azal o‘qidi:

Qo‘llari chiqmas xinodin,

Farq etib bo‘lmas **so‘nadin**, (“Oshiqnoma”, I kitob, 24-bet.)

Bu erda **so‘na** so‘zi poetik simvol bo‘lib, ma’shuqa Sayodxonga ishoradir. Hamro Sayodxonning mag‘rurligi, shaddodligini qarchig‘ay timsolida ifodalaydi:

Qiyο-qiyο boqishlining

Jonim o‘ta yoqishlining

**Oq qarchig‘ay** boqishlining

Dod alindan, do‘st alindan. (“Oshiqnoma”, I kitob, 27-bet.)

Bu misradagi **oq qarchig‘ay** poetik simvol bo‘lib, uning juda olg‘ir qush ekanligi va uning boshqa qushlarni mensimasligi asnosida ma’shuqaning ham shunday ekani ramzlantirilgan.

So‘na go‘zal qush bo‘lib, o‘rdakning urg‘ochisidir. Shu sababli u hamisha ma’shuqa obrazida namoyon bo‘ladi.

Mening yorim suv ichinda **so‘nadir**,

Ko‘ran oshiq kabob bo‘lib yonadir. (“Oshiqnoma”, I kitob, 50-bet.)

Yoki:

Man nayladim **so‘nam**, na dedim siza,

Bir g‘alat so‘z dedim, tilim lol o‘lsin. (“Oshiqnoma”, I kitob, 53-bet.)

Ushbu misollardagi so‘na so‘zi **ma’shuqa** ma’nosida qo‘llangan.

Yorindin ayrilgan **g‘arib bulbulam**,

Gulshan qaysi, bo‘ston qaysi bilmadim. (“Oshiqnoma”, I kitob, 72-bet.)

Bu erda **bulbul** so‘zi oshiq ma’nosida qo‘llangan. Hamro oshiqlig`ini bayon qilgan ekan Sayodxonidan begona bo‘lib qolganini quyidagi ramziy ifodada bayon etadi.

Og‘a beklar, **tarlon** qushim qochirdim,

Sog‘ alimdin so‘l alima olincha, (“Oshiqnoma”, I kitob, 80-bet.)

Bu erdagi tarlon qush so‘zi Sayodxon ma’shuqa ma’nosida berilgan.

“Hurliqo va Hamro” dostonidagi quyidagi misrada Xisrav podsho o‘zini bulbulga qiyoslagan holda ramziy ifodani qo‘llaydi:

**Bulbul** erdim xazon urdi bog‘imni,

Kinga derman siynamdagi dog‘imni, (“Oshiqnoma”, I kitob, 103-bet.)

Yoki shu dostonidagi:

Bog‘ingga qo‘ndi **bulbuling**, ochildi ham g‘uncha guling

Egam qaytardi chirog‘ing, orzui armoning keldi.

(“Oshiqnoma”, I kitob, 109-bet.)

Misralarida bulbul ramzi orqali **farzand** ma’nosi ifodalangan.

Ta’qiq bilgil, xudo seni urgandir.

**Olg‘ir qushing shunqoringdin** ayrilding.

(“Oshiqnoma”, I kitob, 128-bet.)

Misrasidagi shunqor qush so‘zi esa **ma’shuqa** ma’nosida kelgan.

Binobarin, qushlarning aksariyati, she’riy parchalarda asosan oshiq va ma’shuqa ramzida kelishadi. Biroq, bu doirada ko‘p hollarda **bulbul, g‘oz, o‘rdak, shunqor** kabi tabiatan go‘zal va insonlarga sevimli bo‘lgan qushlar ko‘proq tanlanadi. Quyidagi misollarda ham o‘sha an’ana doirasida ramziy ifodalar qo‘llangan.

Biring so‘nam, biring **parror**,

Qaysingga mehmon bo‘layin. (“Oshiqnoma”, I kitob, 279-bet.)

Bu misralardagi so‘na va parror so‘zlari ham **ma’shuqa** ma’nosida kelgan.

Parror qushlarning bir turiga kiradi va o‘z tashqi go‘zalligi bilan ajralib turadi.

Yoki:

Biri **so'na**, biri **g'ozim**,

Ikki sarvinozim keldi. (“Oshiqnoma”, I kitob, 287-bet.)

Bu erda ikki go'zal qiz o'rdak va g'ozga nisbatan berilib, so'na va g'oz so'zlari yana **ma'shuqa** ma'nosida qo'llangan.

Bir yolg'iz yurgan **so'naman**,

Murg'zorli ko'la solg'il. (“Oshiqnoma”, II kitob, 21-bet.)

Bu misralarida ma'shuqa o'zini **so'naga** qiyos qilib, yolg'izligidan shikoyat qiladi.

Uchirdim **shunqor qushimni**,

Hech bir erda turorim yo'q, (“Oshiqnoma”, II kitob, 33-bet.)

Misralarida **shunqor qush** so'zi yor ma'nosida qo'llangan bo'lib, er yigitni bildiradi.

**Suqsurim** qolmadi uchdi gulzordin,

**Bulbul** sayramaydi ayrilsa guldin, (“Oshiqnoma”, II kitob, 54-bet.)

Bu misralardagi **suqsur** so'zi ma'shuqa, bulbul esa **yor oshiq** ma'nosida berilgan. Quyidagi misralarda g'oz bilan turna oshiq va ma'shuqalarga nisbatan ramziy ishoradir:

Bog'imni ochilar gullari barno,

Tomoshag'a kelur **g'oz** birla **turna**, (“Oshiqnoma”, II kitob, 395-bet.)

Ba'zi she'riy parchalarda ijobiy va salbiy ramzlar qarama-qarshi tarzda keltiriladi:

**Qarchig'ay** yo`q joyda qanot qoqishib,

**Qarg'a quzg'unlar** ham **shahboz** bo'larmish. (“Oshiqnoma”, III kitob, 12-bet.)

Kabi, misralardagi Qarchig'ay va shahboz so'zlari ijobiy ma'noda **yor** obraziga ramzlantirilsa, qarg'a, quzg'un so'zlari **dushman** ramzi sifatida tilga olingan.

Ramziy ifodalar tanlangan har bir qush dostonidagi obrazlar qiyofasiga mos holda tanlanadi. Masalan, **qarchig'ay**, **shahboz**, **shunqor**, **burgut** kabi qushlar xalq nazdida jangavorlik kasb etuvchi parrandalardir. Shu sababli ular, albatta er yigitlarga nisbat beriluvchi ramzlar guruhidan o'rin olishadi.

«Yusuf va Ahmad» dostoni jangnoma xarakterida boʻlganligi sababli unda biz yuqorida tilga olgan qushlar simvolikasi katta oʻrinni egallaydi. Yusufbek oʻzining jangavor doʻstlariga qarab quyidagicha murojaat qiladi:

Koʻring, mening och **gurtlarim**,

Sayronlar eting yurtlarim,

Olgʻir **lochin, burgutlarim**,

Xush kelib, safo kelibsiz. («Oshiqnoma», III kitob, 33-bet.)

Ushbu misralardagi **lochin, gurt** va **burgut** timsollari Yusufbekning mard yigitlarining ramziy ifodalaridir. Bu erda timsol bilan obʻekt mardlik, jasurlik, hujumkorlik kabi tushunchalar bilan oʻzaro ichki aloqaga kirishadi.

Dostonlarga razm solinsa, eng koʻp tilga olinadigan qushlardan bittasi shunqordir. Asardagi yigit obrazlari haqida soʻz ketar ekan, albatta shunqor tilga olinadi; Shohsanam Gʻaribdan ayrilib, hijron domiga tushganda oʻz sevgilisi haqida shunday nola chekadi:

Yetti yildir **shunqor** qushim uchirdim,

Koʻran bormu, bilan bormu, yoronlar? («Oshiqnoma» II kitob, 87-bet.)

Shuni ham aytib oʻtish kerakki, baʼzida qizlar haqida soʻz yuritilganda ham shunqor timsolidan foydalaniladi. «Sayod va Hamro» dostonida Hamro Sayodxonni shunqor timsolida bayon etadi:

Uchurdim qoʻlimdin **shunqor qushimni**,

Ollodan tilarman koʻngil xushimni. («Oshiqnoma», I kitob, 82-bet.)

Bir narsa eʼtiborliki, «Sayod va Hamro» dostonidagi ayolga nisbatan **shunqor, qarchigʻay** timsollari tanlanadi:

Boʻz maralim, **och qarchigʻay** boqishlim,

Dol gardana tillo haykal taqishlim,

Oshiqlarning shirin jonin yoqishlim,

**Boʻz tarlon** sifatlim gula sevdigim. («Oshiqnoma», I kitob, 86-bet.)

Sheʼriy parchadagi tarlon oʻxshatishi qarchigʻay ramziy ifodasini yanada kuchaytiradi. Chunki tarlon otni bildiradi. Bu sifatlar Sayodxonni jasur va pahlavon sifat ayol qiyofasida gavdalantiradi. Bu tanlangan ramziy ifodalarning

barchasi doston voqealarining xarakteri va undagi obrazlarning faoliyat doirasiga bogʻliqdir.

«Sayod va Hamro» dostoni oʻz mazmuni bilan qahramonlik dostonlariga ancha yaqin turadi. Unda asosiy bosh qahramon sifatida Sayodxon namoyon boʻladi. Hatto otasi uning izidan yuborgan qoʻshin bilan teng turib jang qiladi. Dostondagi voqealarning jangovarligi, uning obrazidagi jasurlik va mardlikning yorqin koʻrinishlari Sayodxon obraziga nisbatan ishlatiladigan ramziy ifodalarga ham oʻz taʼsirini oʻtkazgan.

Maʼshuqaga qarata «**Shunqor**» ramzini qoʻllash «Oshiq Alband» dostonida ham koʻzga tashlanadi».

Ilkim tovlab quchayin, **shunqorimsan** qoʻla kel,

Agʻyora bosh qoʻshibsan raqibdin qasd ola kel.

(«Oshiqnoma», II kitob, 170-bet.)

Ushbu dostonda ham voqealar baʼzan jangovor tus oladi. Shu sababli ramziy ifodalar ham oʻsha voqealar va obrazlar faoliyatiga mos tanlanadi.

Agarda ramziy ifodalar nuqtai nazaridan qaralsa, ishqiy sarguzasht dostonlarini ham ikkiga ajratib qarash mumkin. Ayrim dostonlar borki, ularda boshdan oyoq **bulbul, toʻti, soʻna** kabi timsollar tanlanib, obrazlar xarakteri ham oʻsha ramzlarga juda mos keladi.

Albatta qushlar bilan aloqador ramzlar faqat ijobiy obrazlargagina nisbat berilib qolmay, salbiy obrazlarning mohiyatini ochishga ham safarbar qilinadi. Baʼzida bulbullar oʻrnini zogʻlar egallab, voqealarda tushkunlik vaziyati yuzaga keladi.

Shohsanam Gʻaribni rashk qilib, arazlar ekan, quyidagi misralarni bayon qiladi:

Bu soʻzlaring meni qoʻydi alama,

**Bulbul** uchib **zogʻlar** qoʻndi gulima.

Ushbu gʻoyaga monand misralar «**Edigo**» dostonida ham mavjud:

Dushmanlarim toʻr qurdilar yoʻlima,

**Qargʻa-zogʻlar** qoʻnibdirilar qoʻlima. («Oshiqnoma», I kitob, 176-bet.)

Qargʻa, zogʻ ramziy ifodalar dostonlarda hamisha noxush vaziyatni ifodalashda tilga olinadi va oʻsha tasvirni ramziy tarzda gavalantirishda asosiy vosita boʻlib

xizmat etadi. Umuman olganda, qushlar obrazi orqali namoyon boʻladigan poetik ramzlar avvalo ijobiy va salbiy tiplarga boʻlinadi. Ular voqea maʼnosi taqozosiga koʻra tanlanib, mazmunning boʻyoqdor chiqishiga yordam beradi. Qushlar timsoli oʻz navbati bilan oshiq maʼshuqalarnigina emas, balki farzandlar maʼnosida ham qoʻllaniladi.

Bugun men ayrildim **savson soʻnadan,**

Man bilmadim, gap etdimi onadan,

(“Oshiqnoma”, V kitob, 7-bet.)

Bu misralardagi savson soʻna poetik simvol boʻlib, oʻrdak Xorazm shevasida soʻna deyilgan, bu erdagi soʻna soʻzi yor maʼnosida ishlatilgan.

Mastona **bulbul** zoringman,

Quvlamasang **gulzoringdan.**

(“Oshiqnoma”, V kitob, 16-bet.)

Bu misralarda Tohir oʻzini bulbulga ramzlantirgan boʻlsa, yorining koʻnglini gulzorga qiyoslagan va poetik simvol yuzaga kelgan.

Bu dostonidagi qushlar bilan aloqador poetik simvollardan yana biri:

Bogʻlarimga **zogʻu zogʻon** qoʻndirma,

Ketar boʻldim, Zuhrajonim, xoʻsh endi.

(“Oshiqnoma”, V kitob, 20-bet.)

Yoki: Terdiging tar guling olma – norimni,

Ravo koʻrmam **qargʻa bilan zogʻlara.**

(“Oshiqnoma”, V kitob, 20-bet.)

Bu misralardagi qargʻa va zogʻ soʻzlari salbiy maʼnodagi poetik ramzlar boʻlib, dushman maʼnosida ishlatilgan.

## 2.2 DOSTONLARDA HAYVONOT OLAMIGA ALOQADOR RAMZLAR

Tabiatda insonni qushlar olami bilan birga hayvonot olami ham qurshab olgan.

Xorazm dostonlarida hayvonot olamiga aloqador ramzlar juda ko'plab uchraydi. Dostonlarda **nor, tulpor, sher, jayron, maral, ohu, tulki** kabi hayvonlar ramz doirasiga ko'proq tortiladi. Bulardan **nar, tulpor, sher oshiq tarzida gavalansa, jayron, maral ohu-ma'shuqa, tulki esa ayyor, ag'yor** tarzida namoyon bo'ladi. Ayniqsa dostonlarda nor (tuya) ko'proq tilga olinadi.

Og'am deb yig'lasam, asrak **narim** yo'q

(“Oshiqnoma”, IV kitob, 140-bet.)

Yoki: Ostinda o'ynar tulpori,

Qirq yigit ichinda **nori**,

Go'ro'g'lining shunqori,

Keldi, Avazxonim, keldi. (“Go'ro'g'li”, 74-bet.)

Tulki bilan sher oshiq va ag'yor sifatida doimo qarama-qarshi qo'yiladi:

**Tulkilarning** ishi bo'lmas **sher** bilan

“Sayod va Hamro” dostonidagi quyidagi misralarda Hamro Salbiniyozga qarab unga sen qol deb iltijo etadi:

Ko'chdi ko'ngul, manzilina etishdi,

Qol, **maralim**, Salbiniyoz, qol emdi. (“Oshiqnoma”, I kitob, 10-bet.)

Bu erdagi **maral** so'zi poetik simvol bo'lib, **ma'shuqaning timsolidir**.

Yoki: Tog'larda **maralsan**, duzlarda **jayron**,

Bir to'ti boqishlim, boshingga qurbon. (“Oshiqnoma”, I kitob, 52-bet.)

Yuqoridagi misrada maral va jayron so'zlari ramz hisoblanib, ularning go'zalligi, chaqqonligi **ma'shuqaga** qiyoslangan. “Hurliqo va Hamro” dostonida Xisrav podsho Hamroni o'g'lonlarga topshirib, farzandlarini ramziy tilga oladi:

Oshiq Qosim sensan maning habibim,

Xisrav aytar, tangri bergan nasibim,

Yo'zuq darda tushdim yo'qdir tabibim,

**Qo'zi-qo'chqorimni** sango topshirdim. (“Oshiqnoma”, I kitob, 108-bet.)

Bu erda **qo‘zi-qo‘chqor** birikmasi poetik simvol bo‘lib, **farzand** ma’nosida qo‘llangan. Dostonlarda faol ishlatiladigan ramzlardan biri **tarlon-ot** timsolidir:

Yorimni yitirdim ellara qarshi,

Suyanganim ham **tarlonim** ketibdur. (“Oshiqnoma”, II kitob, 281-bet.)

Tarlon deganda aslida ot tushuniladi. Ot epik qahramonning suyanchig‘i, tayanchi hisoblanadi. Biroq bu erda ot **yor** ramzida berilgan. Yuqorida ta’kidlaganimiz kabi nar ramzi ko‘p hollarda farzand timsolida beriladi:

Qatordagi maning **norim** ketibdur,

Bog‘larim ketibdur, borim ketibdur, (“Oshiqnoma”, II kitob, 127-bet.)

Kabi misralarda G‘aribning onasi o‘z bolasini norga (tuya)ga o‘xshatgan. Bu erda nor so‘zi **farzand** ma’nosida qo‘llangan. “Yusuf va Ahmad” dostonidagi quyidagi misralarda ham hayvonlarga aloqador ramzlar keltirilgan:

Ne dahli bor munda bu ikki o‘g‘lon,

Isfahondin ko‘chib ketsin shul zamon,

Bizlar birlan dushman bo‘lur begumon,

**Tulki, shag‘ollar arslon** bo‘larmish.

Yoki:

Isfahonda Yusuf jahon mendadur,

Kelbtlari turub **qoplön** bo‘larmish.

(“Oshiqnoma”, III kitob, 12-bet.)

Bu misralarda dostonidagi Yusuf va Ahmadni ko‘rolmaydigan kimsalar podshohga ularni yomonlaydilar va podshoh Yusuf va Ahmadga yurtidan chiqib ketsinlar, deb yozib yuborgan nomasi bayon qilingan bo‘lib undagi tulki, shag‘ol so‘zlari salbiy ma’nodan kelib, podsho fitnachilarning gapiga ishonib Yusuf va Ahmadni **tulki va shag‘olga** o‘zining yonidagi fitnachilarni esa podsho ularga ishongan holda **arslon va qoplön** qiyos qilib ramziy timsollar yuzaga kelgan.

Bu ramziy ishoralar insoniyatning azal-azaldan hayvonot olami bilan tabiatda birga ishlab kelganligining natijasidir.

Hayvonot olami, turli jonzoqlar ramziy ifodalar sifatida tanlanganda ilon ham tilga olinadi. Shu narsa xarakterliki, ilon ramzi uning xarakter-xususiyatiga emas, balki shakli-shamoyiliga nisbatan olinadi:

Ikki sochi erur **shomor**,

Lablaridin boli domar,

Etir mango Tallixonni. («Oshiqnoma», IV kitob, 182-bet.)

Bu misralardagi **shomor** soʻzi shoh+mor birikmasidan iborat boʻlib shoh ilon, katta ilon maʼnosiga ega.

Bu misralarda maʼshuqaning orqasida toʻlgʻanib turgan ikki soch oʻrimi ikkita ilonning toʻlgʻanib yotishi tushunchasi bilan aloqaga kirishadi.

Umuman olganda, dostonlar tilida tabiatni oʻrab olgan barcha oʻsimliklari jonzoqlar asosiy obʻekt boʻlib asar badiiyatida qoʻllaniladigan barcha vositalarda ishtirok etishadi.

Inson oʻz atrofida uchib yurgan qushga befarq qaramaydi. Oʻsha qushning turqi-tarovati, sayrashi, tashqi goʻzalligi uni rom etsa, badiiy nutqda oʻsha qush ijobiy simvol sifatida tanlanadi.

Xuddi oʻsha munosabat hayvonlarga nisbatan ham qoʻllaniladi. Qushlardan bulbul, oʻrdak, gʻoz, turna, tovus, toʻti kabi parrandalar, hayvonlardan maral, jayron, ohu, nar, sher kabi jonivorlar dostonlarda hamisha ijobiy obrazlarning qiyofasini ochib berishda ramziy ifoda sifatida tanlanadi. Qargʻa, quzgʻun kabi qushlar, tulki, shogʻol kabi hayvonlar aksincha salbiy xususiyat tashuvchi ramzlarda oʻz aksini topadi.

## Xulosa

Xalq ijodiyotining monumental janri bo'lgan eposning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va ular badiiyatini tadqiq qilish muhim ilmiy –amaliy ahamiyatga ega.

Dostonlarda tasvirlangan voqealar tizimi har bir xalqning urf-odatlarini, maishiy turmushini, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini va hayotiy falsafasini o'zida aks ettiradi.

Dostonlar badiiyatida poetik ramzlar alohida o'rin tutadi va badiiy ifodalar orasida o'zining qadimiyligi bilan alohida ajralib turadi.

Ramziy ifodalar mohiyati bilan oshno bo'lish uni yaratgan xalqning yashash tarzi, didi-farosati, madaniyati, dunyoqarashi, o'sha geografik muhitning tabiat olamini anglab olishda asosiy manba bo'lib xizmat etadi.

Dostonlarda poetik ramzning ko'plab turlari uchraydi. Ibtidoiy hayot davrida biror fikr yoki tuyg'uni ifodalash uchun «Simvollar tili»ga ehtiyoj sezilgan.

Dastlab sevgi izhor qilishda biror buyumni sovg'a qilish keng tarqalgan. Shuningdek, urush e'lon qilish, yarashish kabi ijtimoiy hodisalarda ham simvolik belgilar katta rol o'ynagan.

Masalan, Shimoliy Amerika hindlarida tomagauk (tayoq, so'yil) yuborish urush e'lon qilishning simvolik belgisi bo'lgan<sup>1</sup>.

Mana shu oddiy signal vazifasini bajargan bu belgilar asta-sekin takomillasha borgan.

Hozirgi davrdagi ma'no mundarijasiga etkuncha ko'plab evolutsiyani boshdan kechirgan.

Ramziy ifodalarning tadriji uzoq davrni o'z ichiga olganligi sababli uning nomi ham turlicha tarzda atalib kelgan. Ramzlarning hozirgi ma'noda atalishi rus folklorshunosligida XVIII asrning o'rtalaridan boshlansa, o'zbek folklorshunosligida XX asrning o'rtalaridan boshlanadi. Hatto XX asarning 50-

---

<sup>1</sup> Koeven M.O. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar, 147-bet.

yillarida ham uning nomi «parallelizm», «allegoriya», «psixologik motivirovka» kabi atamalar bilan yuritilib kelindi.

Holbuki ramziy ifodalar dostonlarda qadimdan beri istifoda etib kelinmoqda. «Go‘ro‘g‘li» eposidagi «oshiq» bilan aloqador «Xiromon pari» dostonida taroq va ko‘mir bilan daxldor lavhalar bunga dalil bo‘la oladi.

Xorazm dostonlarida ramziy ifodalarning ko‘lami juda keng. Biz ishimizda ularni asosan uchta katta yo‘nalishga bo‘lib o‘rgandik.

Dastlab dostonlardagi narsa-predmetlar va turli tasavvurlarga aloqador ramziy ifodalarni tahlil qildik.

Ramzlar oddiy majozlardan jiddiy farq qiladi. Boshqa tasvir vositalarida qiyoslash ko‘proq tashqi ko‘rinishga asoslansa, bunda aks etuvchi va aks ettiruvchi xususiyatlarning solishtirilishi yashirin tus oladi va ichki falsafiy aloqadorlik yuzaga keladi. Ana shu sababdan ramzlarda tilga olinadigan predmetlar soni nihoyatda rang-barangdir. Ularning orasida chiroq, xanjar, gavhar, dur, bol, og‘u, shisha va boshqa ko‘plab narsalar ko‘zga tashlanadi.

Ayniqsa, predmetlarning rangi, umuman rang bilan aloqador ramzlar katta-ko‘pchilikni tashkil etadi. Ramziy ifodalar o‘zi ro‘yobga chiqqan makon, tabiat olami bilan uzviy bog‘liqdir.

Dostonlarda olma, nor, gul, shamshod, sarv kabi daraxt, o‘simlik va meva nomlari ko‘plab ramziy tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi.

Tabiat haqida so‘z ketganda osmon yoritqichlariga alohida e‘tibor qaratishga to‘g‘ri keladi. Quyosh va oy hamisha erkak va ayol ramzida tushunilib, bir-birini o‘zaro almashtirib kelishgan. Ushbu xususiyat biz tahlil qilgan asarlarda ham mavjud. Ularda ba‘zan quyosh-er, oy-ayol tarzida, ba‘zan har ikkalasi ham er yoki ayol ramzida berilaveradi. Bu turli tasavvurlarning va turli ijtimoiy bosqichlarning ta‘siridir. YUlduz esa hamisha asosan go‘zallik, bokiralik ramzi bo‘lib kelgan.

Tabiatni mavsumlarsiz tasavvur qilish qiyin. Shu sababli har bir mavsum dostonlarda o‘z ramziy ifodasiga ega.

Bahor-yoz yasharish, go‘zallik, kuz-qish-xazon va zimistonlik ramzi sifatida qadimdan beri ishlatilib kelgan. Albatta bu umumiylik lozim paytlarda o‘zgarishga

ham uchrashi mumkin. Masalan, kuz-ayriliq, hijron, qish-g'am, tashvish, bahor-bokiralik, yoz-to'kinlik yoki har ikkalasi farzand timsolida kelgan o'rinlar ham ko'zga tashlanadi.

Qushlar, hayvonot olami tabiatning asosiy qismini tashkil etadi.

Ibtidoiy hayot davridan beri insoniyat qushlar va hayvonot dunyosi birgalikda hayot kechirib kelgan. Ayrim hayvonlar, jumladan ot odam hayoti bilan shu qadar yaqin aloqaga egaki, dostonlardagi epik qahramonni uning epik otasiz tasavvur etish qiyin. Shu sababli hatto qadimgi davrlarda epik qahramon halok bo'lsa, uni oti bilan birga afn qilishgan. Ot inson hayotiga shu qadar singib ketganki, buni hozirda ham ayrim fetishlar esga solib turadi. Masalan, uning tuyog'idan olingan parcha yosh bolalarning boshiga tumor sifatida osiladi. Otning kalla suyagi darvozalar ustiga qo'yilib, u balo, ofatlarga nisbatan qalqon ramzi sifatida tan olinadi. Ramziy ifodalarda shunga ko'ra tulpor, tarlon, nor-tuya, sher, qo'chqor kabi hayvonlar ko'p tilga olinib, mardlik, jasurlik timsolida e'zozlanadi.

Kiyik jayron, maral, ohu kabi hayvonlar go'zallik ramzida, tulki, shog'ol singari jonzotlar hiylagarlik, yovuzlik timsolida o'z tasviriga ega bo'lishadi. Qo'zi-qo'chqor kabi hayvonlar esa ko'proq farzand ramziga ko'chishgan.

Qushlar dunyosiga dostonlarda e'tibor ayniqsa kuchlidir.

Oshiq va ma'shuqa obrazlari tilga olinar ekan, albatta bulbul va gulga murojaat etiladi. Bulbul va gul timsoli berilmagan dostonning o'zi yo'q, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Oshiq ramzida hamisha bulbul, shunqor, shahboz, burgut qarchig'ay, lochinlar ramziy ishora sifatida berilsa, so'na, g'oz, o'rdak, to'ti, to'vus kabi parrandalar ma'shuqa timsoli vazifasini o'taydi.

Albatta salbiy obrazlarga nisbatan qo'llanilgan timsollar ham oz emas.

Ko'p hollarda bu doiraga qarg'a, zog' kabi qushlar timsoli tortiladi.

Raqamlar simvolikasi dostonlarda alohida ko'zga tashlanadi. Dostonlarda uch, yetti, to'qqiz, qirq sonlari juda ko'p ishlatiladi. Bu degan so'z ularda boshqa raqamlar ishlatilmaydi, degani emas. Masala mohiyati shundaki, o'sha ko'rsatilgan raqamlar negizida albatta ramziylik xususiyati bo'rtib ko'rinadi. Bu raqamlarning

barchasi o‘z davriga nisbatan miqdor-daraja yuksakligining ramziy ifodalanishi bo‘lib xizmat etgan. Dostonlarda ming, o‘n ming, yuz ming kabi raqamlar ham ko‘p ishlatiladi. Biroq, ularning negizida ramziylikka nisbatan mubolag‘aviylik ustuvorlik qiladi.

Binobarin, poetik simvollar boshqa tasvir vositalaridan o‘zining yashirin muqoyasiga asoslanganligi, negizida teran ichki falsafiy mushohada yotganligi bilan alohida ajralib turadi. Ularning oddiy belgi, tamg‘adan poetik tafakkur darajasigacha tadrijiy yuksalishi xalqimizning aql-zakovatining natijasidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch –T.: Ma’naviyat 2008.
2. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – provard maqsadimiz. –T.: O‘zbekiston 2000 y. 78-bet.
3. Alaviya M. O‘zbek xalq qo‘shiq-lari. –T.: Fan, 1959. 6-101-betlar.
4. Anash xalifa. –T.: Milliy kutubxona, 2006. 16-bet.
5. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. 110-bet.
6. Бутырлин К.М. Проблема поэтического символа в русском литературоведении XIX-XX вв // Исследования по поэтике и стилистике. -Л.: Наука. 1972 стр. 249.
7. Гулыга А.В. Принципы эстетики. -М.: ИПЛ. 1987. стр. 260.
8. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar. –T.: Fan. 1991. 37-bet.
9. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar. –T.: Fan. 1991. 104-bet.
10. Jumatova N.S. Hozirgi o‘zbek she’riyatida rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar. NDA., -T.: 2000 y. 24-bet.
11. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. –T.: Fan. 1960. 441-bet.
12. Колер И., Ранке И., Ратцель Ф. История человечества (доисторический период), СПб.: Полигон, 2003, С. 78.
13. Косвен М.О. Ибтидоий маданият тарихидан очерклар, 147-бет.

14. Косвен М.О. Ибтидоий маданият тарихидан очерклар, -Т.: Фан, 1960. Б.153.
15. Лосев А.Ф. Проблемы символа и реалистическое искусство. –М.: Искусство, 1976. С.18.
16. Мифы легенды Автрами. М.: Наука, 1976. С.11
17. Musaqulov A. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining tarixiy asoslari, Buxoro-1994.
18. Musaqulov A.O‘zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari va badiiyati. Dortar dissertatsiya avtireferati. –Т.: 1995. В.21.
19. Oshiqnoma, II kitob, Urganch, 2006. В. 301.
20. Oshiqnoma, II kitob, 97-bet.
21. Ojiza. –Т.: 2003? 58-bet.
22. Ro‘zimboyev S.Xorazm dostonlaridagi ramzlar // O‘zbek tili va adabiyoti, 1990, №2.39-43-betlar.
23. Ro‘zimboyev S.Xorazm dostonlarida ramzlar //O‘zbek tili va adabiyoti, 1992, №5-6, 50-52-betlar.
- 24.Sulaymonova F.Zardushtiylik va Loniya falsafasi // Adabiy meros, 1989, №2, 9-bet.
- 25.Sobirov O.Qo‘shiqlar haqida // Kelinoy qo‘shiqlari. –Т.: Adabiyot va san’at, 1981. 5-10-betlar.
- 26.Toshmatov X. Q. O‘zbek xalq dostonlari poetic ko‘chimlar, NDA, Т.: 202, 22-bet.
27. Turdimov Sh. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях, АКД. –Т.: 1987. 20 с.
- 28.Turdimov Sh. Dirik qo‘shiqlarda ramz //O‘TA, 1982, 3-son, 16-19-betlar.
29. Turdimov Sh. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida “Tom” ramzi // Adabiy meros. 1987, 2-son, 69-73-betlar.
30. Turdimov Sh. Tom ustiga tom soldim // Yoshlik, 1988, №76 75-76-иуедфкю
- 31.Topishmoqlar. Adabiyot va san’at, 1981, b.10.
- 32.Yoqubbekova M.Xalq lirikasidagi gul ekspressemasining lingvopoetik talqini, Т.: 2004. 28-bet.

33. Yoqubbekova M. O'zbek qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari, T.: Fan, 2005.
34. Yo'ldoshev J. Hasanov S. "Avesto" da ahloqiy ta'limiy qarashlar, -T.: 1992, 22-bet.
35. Sharipov A. Olamlar ichra olamlar. T.: Adabiyot va san'at, 1978. B.10.